

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TABIIYOT FANLARI» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI» KAFEDRASI

«Himoyaga ruxsat etilsin»
Fakultet dekani
_____ E.Yuzlekayeva
« ____ » _____ 2014 yil

5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta’lim yo‘nalishi 401-guruh
talabasi

Nurnazarova Iroda Tirkashevnaning
«TDPU Geografiya kafedrasining geografiya ta’limiga qo‘shgan hissasi»
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya va uni
o‘qitish
Metodikasi» kafedrasini o‘qituvchisi
_____ Sh. A. Xolmurodov

Ilmiy maslaxatchi: «Geografiya va uni
o‘qitish metodikasi» kafedrasini mudiri g.f.n
_____ N.R.Alimqulov

«Himoyaga tavsiya etilsin»
«Geografiya va uni o‘qitish
metodikasi» kafedrasini mudiri
_____ g.f.n. dots. N.R.Alimqulov
« ____ » _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish	5
I bob. TDPU “Geografiya” kafedrasining geografiya ta’limiga qo’shgan hissasini o’rganishning nazariy asoslari va tarixiy jihatlar.....	8
1.1. Kafedraning geografiya ta’limiga qo’shgan hissasini o’rganishning ahamiyati.....	8
1.2. TDPU va kafedraning rivojlanish tarixi.....	11
II bob. Geografiya kafedrası faoliyatining rivojlanish bosqichlari va tadqiqot yo’nalishlari.....	15
2.1. Kafedraning rivojlanish bosqichlari.....	15
2.2. Kafedrada tadqiqotlarning asosiy yo’nalishlari.....	25
III bob. Geografiyani o’qitishda metodist olimlar faoliyatini o’rganish metodikasi.....	30
3.1. Kafedra yetakchi metodist olimlarning geografiya ta’limiga qo’shgan hissasi.....	30
3.2. Yetakchi metodist olimlarning ilmiy merosidan foydalanish yo’llari.....	43
Xulosa	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil Respublikamizda qabul kilingan “Ta’lim to’g’risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tug’risida”gi qonunlarning asl mohiyati sog’lom va barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Shunday ekan, bunda geografiya fani yeggakchi o’rinda borishiga shak—shubha yo’q. Bu o’z o’rnida geografiya ta’limining saviyasiga bevosita bog’liq. Eleze Reklyu aytganidek: “Geografiya bugungi kunning tarixi, tarix esa o’tgan kunlar geografiyasi”dir.

Demak, geografiya fani tarix yoki boshqa fanlardan mavqei past fan emas, faqat uning tarbiyaviy, ilmiy, amaliy ahamiyatini yanada yuksaltirmoq zarur. Bu ko’p hollarda o’zimizga, geograflar va geograf — metodistlarga bog’liq. Bu borada Prezidentimiz I.Karimovning “O’z-o’zini el ishiga bag’ishlagan, inson tarbiyasiga jon tikkan olijonob o’qituvchilarni, mo’tabar muallimlarni bundan buyon ham boshimizga ko’taramiz” degan iboralari TDPUning “Geografiya” kafedrası professor-o’qituvchilarining kafedra faoliyatini va geografiya ta’limiga qo’shgan hissasini yoritish ishning naqadar dolzarbligini beradi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. TDPUning “Geografiya kafedrası geografiya ta’limiga qo’shgan hissasi tahlil qilishdir. Bu maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar bajarilishi maqsad qilib olingan:

- kafedraning geografiya ta’limiga qo’shgan hissasini o’rganishning ahamiyati;
- kafedraning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;
- kafedra tadqiqotlarining asosiy yo’nalishlarini aniqlash;
- kafedraning yetakchi metodist olimlarining geografiya ta’limiga qo’shgan hissasini tahlil qilish;
- kafedra yetakchi metodist olimlarining ilmiy merosidan foydalanish metodikasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot ob’ekti. TDPUning “Geografiya” kafedrası faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. TDPUning “Geografiya” kafedrasining geografiya ta’limiga qo’shgan hissasini tahlil qilish ishning predmeti hisoblannadi.

Ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakavi ishida kafedrasining geografiya ta’limiga qo’shgan hissasini tahlil qilishda quyidagilar ishlab chiqildi:

- kafedraning geografiya ta’limiga qo’shgan hissasi tahlil qilindi;
- kafedraning tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi;
- kafedra tadqiqotlaining asosiy yo’nalishlari o’rganildi;
- kafedraning professor o’qituvchilarining ilmiy meroslari tahlil qilindi.

Amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari TDPUning “Geografi” kafedrasida, respublikada geografiya o’qitish metodikasi sohasiga boy meroslaridan yosh geograflar ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirishda hamda tashkillashtirishda o’zining munosib hissasini qo’shadi.

BMIning tarkibi. Bitiruv malakaviy ish Kirish, uch bob, 6 ta bo’lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati bo’lib matn 60–sahifadan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, ishning yangiligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Birinchi bob *“TDPU “Geografiya” kafedrasining geografiya ta’limiga qo’shgan hissasini o’rganishning nazariy asoslari va tarixiy jihatlari”* bo’lib, bunda kafedraning geografiya ta’limiga qo’shgan hissasini o’rganish ahamiyati va kafedraning rivojlanish tarixi yoritib berilgan.

Ikkinchi bob *“Geografiya kafedrasida faoliyatining rivojlanish bosqichlari va tadqiqot yo’nalishlari”*ga bag’ishlangan bo’lib kafedraning geografiya ta’limiga qo’shgan rivojlanish bosqichlari va tadqiqotlarining asosiy yo’nalishlari tahlil qilingan.

Uchinchi bobda *“Geografiyani o’qitishda metodist olimlar faoliyatini o’rganish metodikasi”* deb nomlanib, bunda kafedraning yetakchi metodist olimlarning geografiya ta’limiga qo’shgan ilmiy meroslari va shu ilmiy meroslardan foydalanish yo’llari yoritildi.

Xulosa va tavsiyalar qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilib, mavzu bo'yicha tavsiya va takliflar keltirilgan.

I BOB. TDPU “GEOGRAFIYA” KAFEDRASINING GEOGRAFIYA TA’LIMIGA QO’SHGAN HISSASINI O’RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TARIXIY JIHATLARI

1.1. KAFEDRANING GEOGRAFIYA TA’LIMIGA QO’SHGAN HISSASINI O’RGANISHNING AHAMIYATI.

Dunyoda shunday insonlar bo’lar ekan, ular bilan bir havodan nafas olib, zamondosh bo’lib yashayotganingdan faxrlanib ketar ekansan kishi. Agar o’sha insonlar bir vaqtlar senga va sen kabi yuzlab qorako’zlarga saboq bergan ustoz murabbiy bo’lsa —chi? Ustozlar haqida biron bir narsa yozish juda qiyin ekan. Yana u kishilar el nazariga tushgan, fan —maorif taraqqiyotiga o’z hissasini tushgan, notiq bo’lsalar, zimmangdagi ma’suliyat yuz chandon ortar ekan (Xojimatov A.N, Qambarova D.M, 2005).

TDPUning “Geografiya” kafedrasining ta’limga qo’shgan hissasi va ilmining jonkuyarlari bisyordir. Ular respublikamizda Oliy va o’rta maxsus ta’limi, umumiy o’rta ta’lim hamda keng omma uchun balki ushbu “Geografiya” fan taraqqiyotiga baholi qudrat o’z hissalarini qo’shganlar va qo’shib kelmoqdalar. Ayrimlari hozirgi istiqol onlarini orzu qilgan bo’lsalarda, afsus bu kunlarni ko’rish ularga nasib etmadi. Biz mazkur BMIining ko’lami, mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, faqat geografiya o’qitish metodikasi sohasida samarali faoliyat ko’rsatgan, aynan shu sohadagi xizmatlari tufayli el-yurt nazariga tushgan, hayot-faoliyatlarining ma’lum qismi Nizomiy nomidagi TDPU bilan chambarchas bog’langan bir guruh olimlar va kafedra faoliyati to’g’risida tarixga nazar tashlasak ta’limga qo’shgan boy merosi ulkanligini anglash mumkin.

Geografiya fanini o’qitish metodikasi sohasiga hissa qo’shgan marhum ustozlarimiz (H.Hasanov, O.Mo’minov, M.Nabixonov ...), hamda hozirda kafedrada shu sohaga jonkuyarlik qilayotgan bir qancha geograf-metodist olimlarimiz ham o’z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

Ilk maktab geografiyasi O’zbekistoida Sobiq Sho’rolar davridagi boshqa “ittifoqdosh respublikalar” maktab geografiyasiga o’xshab Rossiya maktablari

namunasida boshlangan. Bunga avvalo sobiq VKP(b) MKning 1934 yil 16 maydagi “o’rta maktablarda geografiyani o’qitish to’g’risida”gi qarori hamda “Pravda” gazetasining 1937 yil 10 sentyabrdagi bosh maqolasi asos bo’lgan.

O’quv dasturlari va darsliklar deyarli Sobiq Ittifoqning boshqa maktablaridagisining o’zi edi. Rusiy zabon maktablar uchun darsliklar Moskvada nashr etilib, o’zbek maktablari uchun ular Toshkentda o’zbekchaga tarjima qilinib nashr etilardi.

Har bir respublikaning o’z geografiyasi qo’shimcha o’lkashunoslik materiali sifatida: 7 — sinfda O’zbekiston tabiiy geografiyasi 14 soat; 8 —sinfda 11 soat O’zbekiston iqtisodiy geografiyasi o’rganilar edi.

Maktab geografiyasi yuqoridagi holatlarga qaramay, geografiya o’qituvchilari bilan deyarli ta’minlangan, qator maktablarda geografiya xonalari va jihozlarga ega edi.

Keyinchalik O’zbekistondagi maktablar uchun o’lkashunoslik qo’llanmasi sifatida mualliflar: N.Dolimov, M.Qoriev, O.Mo’minov, Z.Akromov, P.Musaevlar tomonidan geografiya ta’limi uchun tabiiy va iqtisodiy geografiya bo’limi bo’yicha o’quv kitoblar nashr qilingan.

Bo’lardan tashqari o’zbek tilida kartografiyaga oid (T.Mirzaliev), iqtisodiy geografiya (P.Musaev), toponimika (X.Hasanov), umumiy tabiiy geografiya xrestomatiyasi (O.Mo’minov), qiziqarli geografiya bo’yicha (X.Hasanov. P.Musaev, R.Qurbonniyozov) ko’llanmalar nashr etildi. O’zbekistonning o’rta maktab uchun atlas yaratilishi fan uchun eng katta qadam bo’ldi.

Oliy geografiya ta’limiga ilk bor 1935 yilda SAGU (hozirgi UzMU) dagi Geologiya — tuprokshunoslik — geografiya fakul’tetida geografiya guruhining tashkil etilishi hamda shu yili Samarkand Universiteti, Farg’ona, Buxoro va Toshkent pedagogika institutlarida geograflar tayyorlashning boshlanishi asos bo’ldi.

Geografiya o’qitish metodikasi to’g’risida gap ketganda, O’zbekistonda iqtisodiy geografiya bo’yicha birinchi fan doktori, professor, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan fan arbobi marhum Ziyovuddin Muxiddinovich Akromovning benazir

xizmatlarini unutib bo'lmaydi. Bu inson respublikadagi barcha geograf—olim, metodistlarning yulboshchisi sanalar edilar.

Biz keyingi tadqiqotlarimizda ushbu serqirra ijod sohiblarini alohida - alohida o'rganish niyatimiz borligidan ular to'g'risida mazkur BMIda to'xtalishni lozim topmadik. Chunki geografiya faniga, uni o'qitish metodikasiga hissa qo'shgan barcha insonlar tub ma'noda haqiqiy vatanparvarlardir. "Vatanparvarlik o'z o'lkasini o'rganishdan boshlanadi" degan gaplar bejiz aytilmagan.

Demak kafedraning fan uchun qo'shgan ilmiy merosini tahlil qilish ularni kelajak avlodga yetkazib berish ishning naqadar ahamiyatligini bildiradi.

1.2. TDPU VA KAFEDRANING RIVOJLANISH TARIXI

Oliy malakali o'qituvchi pedagoglarga ortib borayotgan ehtiyojni hisobga olib Respublika hukumatining 1935 yil 23 maydagi 34-son qarori va Xalq maorifi komissarligining 1364-sonli qarorlariga asosida O'rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakulteti zahirida Toshkent Davlat pedagogika instituti tashkil qilindi.

1935 yildan 1947 yilgacha pedagogika instituti deb nomlangan, 1947 yil Azarbayjan shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviyning 800 yilligi munosabati bilan Nizomiy nomi berildi va shu kunga qadar Nizomiy nomi bilan atalib kelinmoqda. 1985 yili institutining 50 yilligi munosabati bilan instituti muzeyi tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevralidagi 77-sonli qaroriga muvofiq Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutiga universitet maqomi berilib, u respublikadagi akademik litsey, kasb-hunar kollejlari uchun pedagogik kadrlar - fan o'qituvchilari tayyorlaydigan yetakchi tayanch oliy o'quv yurti deb belgilandi.

Tashkil etilgan dastlabki yillardanoq u mintaqamizdagi yirik fan va ta'lim markaziga aylandi. Bu dargohda ko'plab ilmiy yo'nalishlar va ilmiy maktablar shakllandi. O'tgan davr ichida mazkur ta'lim maskanida 200 mingdan ziyod ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlandi. Bitiruvchilar orasidan Ya.G'ulomov, SH.Abdullaev, Z.Nuriddinov, Xamid G'ulom, Shuhrat, Mirmuhsin, Shukrullo, Zulfiya, Said Axmad, R.Choriev kabi ko'plab fan va davlat arboblari, san'at va adabiyot namoyondalarining Yetishib chiqqanligi alohida e'tiborga loyiqdir. TDPI va uning fakultetlari chet tillar, jismoniy tarbiya, rus tili va adabiyoti, madaniyat institutlarining tashkil etilishida tayanch ta'lim muassasasi sifatida xizmat qildi.

Hozirda universitetda 11 ta fakultet va 52 ta kafedra mavjud bo'lib, bakalavriyatning 31 ta yo'nalishi va magistraturaning 29 ta yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar hamda KIXIining 10 ta ilmiy yo'nalishi bo'yicha fan doktorlari tayyorlanmoqda, oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi tizimlari uchun malaka oshirish

va qayta tayyorlash markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur mutaxassisliklar bo'yicha 10000 ga yaqin talabalar va tinglovchilar tahsil oladilar. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik ta'limning ko'plab sohalari qamrab olingan.

1-jadval

Universitet rektorlarining faoliyati

№	Yillar	Universitet rektorlarining F.I.SH.
1	1935-1938	A. Zargarov
2	1938- 1940	A.Usmonov
3	1940-1943	N.Karimov
4	1943-1946	T.Alimova
5	1946-1951	A.Islomov
6	1951-1971	Sh.Abdullaev
7	1971-1976	Z.R.Nuriddinov
8	1976-1979	X.T.Tursunov
9	1979-1983	S.P.Tursunmuxamedov
10	1983-1988	G'.A.Abdurahmonov
11	1988-1991	K.Yu.Yusupov
12	1991-1994	A.Zoidov
13	1994-2005	B.G'.Qodirov
14	2005-2006	G'.I.Muhamedov
15	2006-2007	U.Sh.Begimqulov
16	2007-2011	F.I.Haydarov
17	2011-2013	U.I.Inoyatov
18	2013-dan h.v	S.Sh.Sharipov

Universitetda faoliyat ko'rsatayotgan 750 dan ortiq professor-o'qituvchilarning 55 nafari fan doktorlari, 265 nafari esa fan nomzodlaridir. Ular tomonidan DITD doirasidagi 21 ta loyiha va 1 ta xalqaro TEMPUS loyihasi bajarilmoqda. Talabalarimizdan 1 nafari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

stipendiyasi sohibi, 4 nafari nomli Davlat stipendiyalari sohiblari, 13 nafari esa respublika fan olimpiadasi g'oliblari hisoblanadi.

Universitet yosh olimlar kengashining faoliyati iqtidorli yoshlarni topish, ularning salohiyatini rivojlantirish va kelgusida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

Hozirda fan va ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan isloxotlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlar professor – o'qituvchilar, ilmiy – tadqiqotchilar, magistrlar va talabalarning ilmiy – ijodiy faolligini oshirishga, ta'lim mazmunini ko'tarishga qaratilgan bo'lib ilmiy seminarlar va konferentsiyalar faoliyatini tubdan yaxshilash, ilmiy loyihalarning sifatli bajarilishiga erishishni nazarda tutadi.

Kafedra 1935 yilda Toshkent Davlat Pedagogika Instituti “Geografiya” kafedrasi nomi bilan tashkil etilgan. Asosiy vazifasi geograf o'qituvchilar va ilmiy xodimlar tayyorlashdan iborat bo'lgan.

II Jahon urushi yillari kafedra o'z faoliyatini to'xtatgan va 1944-1945 o'quv yilidan o'z faoliyatini qaytadan boshlagan.

1961 yil “Geografiya” kafedrasi tabiiy va iqtisodiy geografiya kafedralariga bo'lingan va 1995 yilgacha faoliyat olib borgan.

1995 yili “Tabiiy geografiya” va “Iqtisodiy geografiya” kafedralari birlashib, “Geografiya va uni o'qitish metodikasi” kafedrasi tashkil etildi va hozirda ham faoliyat olib bormoqda. 2000 yildan buyon kafedrada “Geografiya” mutaxassisligi bo'yicha magistratura, 2002 yildan boshlab “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

2-jadval

KAFEDRA MUDIRLARINING FAOLIYATI

№	Yillar	Kafedra mudiri F.I.SH.	Ilmiy darajasi
1	1935-1941	M.X.Bektemirov	G.f.n., dots.
2	1944- 1950	P.A.Molъchanov	G.f.d., prof.
3	1950-1960	M.Yu.Mirboboev	G.f.n., dots.

4	1961-1965	A.V.Xisomov (tabiiy geografiya)	G.f.n., dots.
	1961-1965	P.Baratov (iqtisodiy geografiya)	G.f.n., dots.
5	1965-1974	P.Baratov (tabiiy geografiya)	G.f.n., dots.
	1965-1978	G.R.Asanov (iqtisodiy geografiya)	G.f.n., dots.
6	1975-1978	R.Baxriddinov (tabiiy geografiya)	G.f.n., dots.
	1978-1990	M.N.Nabixonov (iqtisodiy geografiya)	G.f.n., dots.
7	1979-1989	M.F.Rasulov (tabiiy geografiya)	G.f.n., dots.
	1990-1994	T.B.Abdullaeva (iqtisodiy geografiya)	G.f.n., dots.
8	1989-1996	M.Mamatqulov (tabiiy geografiya)	G.f.d., prof.
	1994-1996	I.Safarov (iqtisodiy geografiya)	G.f.n., dots.
9	1996-2000	A.A.Qayumov	G.f.d., prof.
10	2000-2002	S.S.Navro'zov	G-m.f.n., dots.
11	2002-2003	Z.Rayimjonov	G-m.f.n., dots.
12	2003-2010	X.Vaxobov	G.f.d., prof.
13	2010-2011	S.S.Zokirov	I.f.n., dots.
14	2011dan h.v	N.R.Alimqulov	G.f.n. dots

2011-2012 o'quv yilidan "Geografiya o'qitish metodikasi" yo'nalishi bo'yicha bakalavriat va magistratura mutaxassisligiga qabul qilindi va hozirgi davrgacha mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda.

II BOB. GEOGRAFIYA KAFEDRASI FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA TADQIQOT YO'NALISHLARI

2.1. KAFEDRANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasini 1935 yilda Toshkent Davlat pedagogika instituti "Geografiya" kafedrasini nomi bilan tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi geograf o'qituvchilar va ilmiy xodimlar tayyorlashdan iborat bo'lgan. Tashkil topgan davrining dastlabki bosqichlarida uni M.X.Bektemirov boshqargan. Kafedrada S.M.Saidrasulov, A.Obizov, M.V.Qoriev, I.Mirzaboevlar faoliyat ko'rsatgan. A.Obizov tomonidan "O'zbekiston geografiyasi" darsligi nashr qilingan. II jaxon urushi yillari kafedra o'z faoliyatini to'xtatgan va 1944-1945 o'quv yilidan yana ishlay boshlagan¹.

1944-1950 yillari kafedrani prof. P.A.Molchanov boshqargan. Shu davrdan kafedrada O'zbekiston tabiati va tabiat komplekslari o'rganila boshlangan. Oqibatda geografiya fanining turli sohalari bo'yicha ilmiy – tadqiqot ishlarini olib boruvchi markazlardan biriga aylandi. Prof. P.A.Molchanov O'rta Osiyo iqlimi, o'ziga xos xususiyatlarini hamda ko'llar gidrologiyasini o'rganish bilan shug'ullanib natijada "Ozera Sredney Azii" (Tashkent, 1929) monografiyasini, dots. M.Yu. Mirboboev oltin konlarining joylashish sharoitlarini, M.V.Qoriev O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiatini o'rganganlar.

1950-1960 yillarda kafedrani dots. M.Yu. Mirboboev boshqargan. Bu davrda O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiati va tabiiy resurslarini o'rganish yanada kuchaydi va kengaydi. I.Mirzaboev "O'zbekiston o'lkashunoslik kartasi", M.Yu.Mirboboev "Geologiya i geomorfologiya severnogo sklona Nuratinskix gor" risolasi, M.V.Qoriev va boshqalar tomonidan "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" o'quv qo'llanmasi (1959 y.) nashr etildi. Bu davrda kafedra a'zolari turli ekspeditsiyalarda (Qarshi cho'li, Qizilqum, Farg'ona va Zarafshon mintaqalarida) qatnasha boshladilar.

¹Baratov.P, Alimqulov.N, "TDPUning 80 yillik yubileyi" ilmiy materiallar to'plami. 2014

Dots. M.F.Rasulov Qarshi cho'lidagi qum relief shakllarining kelib chiqishini o'rganib, ko'chma qumlarni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdi. Dots. P. Baratov Zarafshon vodiysi tabiat komplekslari va

tabiiy geografik jarayonlarini o'rganib bu yerdagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy fikrlarini olg'a surdi. Dotsent R.Xodiev Qarshi cho'lini o'zlashtirishning iqtisodiy ahamiyati, undan kelajakda foydalanish haqida o'z tavsiyalarini bergan. Shu soha bo'yicha kafedra a'zolari (M.Yu.Mirbabaev, M.V.Qoriev, P.Baratovlar tomonidan qator ilmiy to'plamlar (ucheniya zapiski TGPI, Tom 8, 1958, vyp 13, 1960) nashr etdilar.

1961 yil "Geografiya" kafedrasini "Tabiiy geografiya" va "Iqtisodiy geografiya" kafedralariga bo'lindi. Iqtisodiy geografiya kafedrasini dots. P.Baratov (1961-1965 yy.), Tabiiy geografiya kafedrasini dots. A.V.Xisomov (1960-1965 yy.) boshqardilar. Bu davrda O'rta Osiyo tabiatini o'rganish, xalq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida tabiiy resurslarni aniqlash va xaritalashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib borildi. Natijada P.Baratovning "Kaspiy dengizining taqdiri" (1962 y), "Oltin sochuvchi daryo" (1964 y), kabi asarlar, M.Yu.Mirbabaev, M.V.Qoriev, A.V.Xisomov va P.Baratovlar hamkorligida "Ocherki geografii Sredney Azii" vyp. 1 (1951) vyp (1960). 1975-1978 yillarda dotsent B.Baxriddinov, 1979-1980 yillarda dotsent M.F.Rasulov, 1986-1996 yillarda professor M.Mamatqulov ilmiy to'plami chop etildi.

Tabiiy geografiya kafedrasiga 1960-1965 yilari dotsent A. Xisomov, 1965-1974 yillari dots. P.Baratov rahbarlik qildi. Bu davrda kafedra a'zolari tomonidan o'rta va oliy ta'lim muassasalari uchun "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" (M.Qoraev T. 1968) "Tabiiy geografiyadan metodik qo'llanma" (P.Baratov, 1978 y), "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" (M.V.Qoraev, A.V.Xisomov, P.Baratov, R.L.Kogay, M.N.Nabixonov, M.F.Rasulov. T.1981 y.), "Tabiatni muhofaza qilish va o'zgarishi" (P.Baratov, R.L.Yugay M.F.Rasulov. T.1980 y.), "Geologiyadan amaliy mashg'ulotlar" (A.Qurbonov, T.1983 y.), "Yer bilimi va o'lkashunoslik" (P.Baratov, T. 1980 y), "Kartografiya va topografiya asoslari" (M.A.Asomov va boshq.,T.1984 y), "Tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi" (O.A.Mo'minov,

T.1976y), “Tabiatshunoslik asoslari” (P.Baratov va boshq., T.1982y), “O’zbekiston tabiiy geografiyasi” (O.A.Mo’minov va boshq.,T.1980y), “Tabiatshunoslik” (O.A.Mo’minov, T.1984 y), “O’zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy ishlar” (O.A.Mo’minov, P.Baratov, T.1980 y), “Yer bilimi va o’lkashunoslikdan amaliy ishlar” (P.Baratov, T.1988 y), “Tabiatni muhofaza qilish” (P.Baratov, T.1991 y), “O’zbekiston tabiiy geografiyasi” (P.Baratov 1996) kabi qator darsliklar yaratildi. O’rta Osiyo tabiiy komplekslarini tatqiq qilish, tabiatdan oqilona, tejab foydalanib ularni muhofaza qilishga va geografiya fanini ommalashtirishga qaratilgan qator ilmiy maqolalar, monografiyalar chop etildi. A.V.Xisomovning “Klimat Tashkent” (1968), R.L.Kogayning “Istoriya razvitiya geograficheskix i kartograficheskix predstavleniy Kizilkum” (1966), shu bilan birga I.Inog’omovning “Istoriya fiziko – geograficheskogo izucheniya territorii Uzbekistana” (1976), “Prirodnye resursi doliny Zarafshona i ix ispolzovaniya” (P.Baratov “Fan” 1977), “O’rta Osiyo cho’llarining ertangi kuni” (P.Baratov “Fan” 1980), “O’rta Osiyo daryolarining xo’jalik ahamiyati” (P.Baratov, Q.Xolmatov, T.1981), P.Baratovning “O’rta Osiyo daryolari va ularning xo’jalik ahamiyati” (1967) va “O’rta Osiyo cho’llari inson izmida” (1967) kabi monografiyalar chop etildi. Shuningdek, P.Baratovning “O’rta Osiyo tabiiy suv laboratoriyasi” (1968), “Dengizda suv yetishmaganda” (1969), “O’rta Osiyo subtropiklari” (1971) kabi ilmiy ommabop brashyuralari, O.A.Mo’minovning Hindiston va Shri-Lanka davlatlarida bo’lib, olgan ta’surotlari asosida “Jozibali o’lka”, “Ajoyib tabiatli o’lka”, “Turfa olam” hamda keng ommani geografiya faniga qiziqtirishga qaratilgan “Qiziqarli geografiya”, risolalari chop etildi (Baratov.P, Alimqulov.N, “TDPUning 80 yillik yubileyi” ilmiy materiallar to’plami 2014).

Tabiiy geografiya kafedrası a’zolari dotsent M.Rasulov, prof. P.Baratov, prof. R.L.Kogay, dots. X. Masudov hamkorligida xo’jalik shartnomasi asosida “Priroda” markazi buyurtmasiga asosan birinchi marta besh yuz minglik masshtabda kosmik ma’lumotlar asosida “O’zbekiston landshafti” kartasi yaratildi.

“Iqtisodiy geografiya” kafedrasiga dotsentlar G.R.Asanov (1965-1979), M.N.Nabixonov (1978-1990), T.B.Abdullaeva (1990-1994), I.Safarov (1994-1995) rahbarlik qildilar.

Kafedra olimlari tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yo’nalishida ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, F.V.Kovalchuk Mirzacho’ning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini xo’jalik maqsadlarida o’rganib, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish, ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqdi (F.V.Kovalchuk. “Xozyaystva Golodnoy stepi”. Cb. nauchnix trudov Tekstilnogo instituta. Vypusk V. T. 1957 g). Namangan viloyati mehnat resurslari dots. G.Asanov tomonidan o’rganilib, ulardan xalq xo’jaligida oqilona foydalanish, ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish hamda qishloq xo’jalik ishlab chiqarishini rivojlantirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqildi (Asanov G. “Selxoz rasseleniya Namanganskoy oblasti”. Ekonomiko-geograficheskoe issledovanie. T. 1975 g).

Dots. I.Safarov Surxondaryo viloyati axolisining joylanish qonuniyatlari, dots. B.Mirtursunov tog’ va tog’oldi rayonlar tabiatidan xo’jalik maqsadlarida foydalanish muammolari ustida tadqiqotlar olib bordilar.

Bunday ishlar natijasida qator ilmiy to’plamlar va monografiyalar nashr qilindi. G.R.Asanov, F.V.Kovalchuk, I.Mirzaboev, M.Usmonovlarning “Geograficheskii ocherk Sredney Azii” (T. 1968 g), G.R.Asanov, F.V.Kovalchuk, I.Mirzaboev, A.Mirtillaevlarning “Naselenie i xozyaystvo Uzbekistana” (T. 1967 g), G.R.Asanov, F.V.Kovalchuk va boshqalarning “Voprosy ekonomicheskoy i fizicheskoy geografii Uzbekistana” (1972 g) kabi ilmiy asarlari shular jumlasidandir.

Kafedra professor-o’qituvchilari tomonidan Oliy va o’rta ta’lim o’quvchilari uchun qator darsliklar va o’quv qo’llanmalari yaratildi. G.R.Asanovning “Aholi geografiyasi” (T.1978 y), G.R.Asanov, M.N.Nabixonovlarning “O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” (1984 y), T.B.Abdullaevaning “Geografik o’lkashunoslik” (1979 y) va 3-sinf o’quvchilari uchun “Tabiatshunoslik” darsliklari nashr qilindi. Dots. G.R.Asanov tomonidan “Jahon aholisi” (1969 y),

“Aholi o’sishi va hayot resurslari” 1970 y), “Aholi va tabiat” (1971 y), “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy yo’nalishlari” (1979 y), “Xizmat ko’rsatish sohasi geografiyasi” (1984 y) kabi o’quv qo’llanmalar va risolalar chop etildi.

Tabiiy va iqtisodiy geografiya kafedrası geograf-pedagog kadrlar tayyorlash bo’yicha respublikadagi o’ziga xos ilmiy-uslubiy markazga aylangan. Buni ko’p yillardan buyon kafedra professor - o’qituvchilari tomonidan nashr etilgan darslik va o’quv-metodik qo’llanmalar ham tasdiqlab turibdi. Jumladan, prof. O.A.Mo’minov O’zbekiston geografiya makablarida geografiya fanini o’qitish metodikasini rivojlanish tarixini o’rgandi. Geografiya shqitish metodikasi bo’yicha darslik yaratdi (O.A.Mo’minov “Tabiiy geografiyani o’qitish metodikasi”. T: 1976 y). Topografik va kartografik tushunchalarni shakllantirish va takomillashtirishning asosiy yo’llari M.Asomov tomonidan ishlab chiqildi. Asamov M. “Topografiya va kartografiya bo’yicha talabalar bilimlarini takomillashtirishning ayrim masalalari”. (V sb iz opyta prepodovaniya yestestvennyx distsiplin v pedagogicheskix institutax. Nauchn. Tr. TGPI im nizami, T: 1976).

Geografik tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirishda o’zbek badiiy adabiyoti, hujjatlar, ilmiy – ommabop filmlardan foydalanishning metodlari va usullari dots. M.N.Nabixonov tomonidan ishlab chiqildi (Nabixonov M. Geografiya darslarida badiiy va qo’shimcha adabiyotlardan foydalanish T: 1968). M.Yu.Yunusova tomonidan geografiya darslarida natural vositalardan foydalanishning metodik – shart sharoitlari ishlab chiqildi va ularni o’qituvchilari bilim va ko’nikmalarni samaradorligini oshirishdagi o’rni ochib berildi (M.Yu.Yunusova “O’zbekiston tabiiy geografiyasi kursini o’rganishda mahalliy natural vositalardan foydalanish”, T. 1979 y). Geografiya darslarida o’lkashunoslik materiallaridan foydalanish metodlari T.Abdullaeva tomonidan ishlab chiqildi (Abdullaeva T. “Geografiya darslarida o’lkashunoslik materiallaridan foydalanish” T: 1967).

1995 yilda “Tabiiy geografiya” va “Iqtisodiy geografiya” kafedralari birlashtirilib, “Geografiya va uni o’qitish metodikasi” kafedrası tashkil etildi. Turli

yillarda kafedrani prof. A.A.Qayumov (1996-2000 yy.), dotsentlar S.Navro'zov (2000-2002 yy.), Z.Raimjonov (2002-2003 yy.), prof. X.Vaxobov (2003-2010 yy.), dots. S.Zokirov (2010-2011yy.)lar boshqardilar. Bu davrda kafedra a'zolari tomonidan qator monografiyalar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar nashr etildi. 2011 yil noyabr oyidan boshlab kafedra jamoasiga g.f.n. N.R.Alimqulov rahbarlik qilmoqda.

2003-2010 yillarda g.f.d., prof. X.Vaxobovning bevosita ishtirokida ko'pgina ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik (X.Vaxobov, P.Baratov va boshqalar) va geografiyadan metodik qo'llanma (T. 2003y), yordamchi maktablarning 6-sinfi (X.Vaxobov, T. 2003y hamda 7-sinfi uchun geografiyadan darslik (X.Vaxobov, P.Po'latova, 2003), umumta'lim maktablarning 10-sinfi uchun "Amaliy geografiya" (X.Vaxobov, A.Qayumov va boshq., T. 2004) nashr qilindi. Prof. X.Vaxobov tomonidan oliy ta'lim geografiya yo'nalishi talabalari uchun "Umumiy yer bilimi" darsligi (2005), G.R.Asanov, M.N.Nabixonov, I.Safarovlar tomonidan «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» (1996), oliy o'quv yurtlari talabalari uchun "Toponimika" o'quv qo'llanmasi (S.Qoraev, 2006), "O'zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasi" (A.Nizomov, 2008) nomli monografiyalar nashrdan chiqdi.

Keyingi yillarda tabiiy geografiya, landshaftlar geofizikasi va geokimyosi, geoekologiya yo'nalishlari bo'yicha kafedra o'qituvchilaridan Z.Amanbaeva (2004), I.Abdullaev (2005), N.Alimqulovlar (2008), iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha N.Safarova (2010) nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Shu davrlarda kafedra professor-o'qituvchilari N.Alimqulovning "Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti" (2011) nomli monografiyasi, A.Nizomovning "Qadimiy gidrotexnik inshootlar", "Toponimika" nomli o'quv qo'llanmasi (2012), N.Alimqulov, I.Abdullaevlarning "Amaliy geografiya fanini sohalarga yo'naltirib o'qitish metodikasi" nomli metodik qo'llanmasi (2012) nashr qilindi.

Shuningdek, prof. P.Baratov tomonidan “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar” (2006), “O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi” (2002) P.Baratov, A.Soatov “Umumiy tabiiy geografiya” (2002), P.Baratov, A.T.G‘ofurovlar tomonidan “Tabiatshunoslik” o‘quv qo‘llanma (2005), A.N.Xojimatov tomonidan “Atrof-muhitni muhofaza qilish”, “Ekologiya”, “Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti” hamda “Ekologik monitoring” (2004) o‘quv qo‘llanmalari, N.Safarova, Z.Amanbaeva, A.Gapparovlar tomonidan “Moddiy ishlab chiqarish asoslari” (2013) nomli o‘quv qo‘llanma, M.Nurmatov tomonidan «O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik xususiyatlari» (2013) monografiyalar nashr qilindi.

Ilmiy va metodik adabiyotlarning chop etilishi geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha chuqur tadqiqot larning amalga oshirilishi hamda ta’limning birmuncha takomillashuvi tufayli geografiya o‘qitishni tashkil qilish borasida talaygina yangilik vujudga kelishiga sabab buldi.O‘qitish jarayonida baholash tartiblarining yangi reyting tizimining o‘ziga xos shakllari,uslublari yaratildi.Geografiya ta’limida o‘quvchilar bilimini tekshirishning reyting tizimi jadallik bilan joriy etildi.Bu tizim orqali o‘quvchilarning nazariy,amaliy bilimlarini tekshirish uchun ko‘lay shart-sharoitlar yaratildi. Reyting tizimi o‘quvchilarning mustaqil ishlarini mukammal baholash imkoniyatlarini yaratdi.Ammo u o‘qituvchilar uchun qator noqulayliklar ham keltirib chikardi..

Mustaqillik yillarida Oliy o‘quv yurti, akademik litsey, kollej talabalari hamda umumta’lim o‘quvchilari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar bilan ta’minlashga alohida e’tibor berildi. Natijada kafedra a’zolari tomonidan quyidagi o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar chop etildi (3-jadval).

**MUSTAQILLIK YILLARIDA CHOP ETILGAN ADABIYOTLAR
RO'YXATI**

№	Muallifning f.i.sh	Kitobning nomi	Kimlar uchun mo'ljallangan	Kitobning turi	Nashr qilingan yili
1	Qurbonov A.S,	Geologiya	Pedagogika oliygohlari	Darslik	1993 y
2	Asanov G, Nabixonov M, Safarov I.	O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi	Oliy o'quv yurtlari	Darslik	1994 y
3	Baratov. P	O'zbekiston tabiiy geografiyasi	Pedagogika oliygohlar	O'quv qo'llanma	1996 y
4	Mo'minov. O, Baratov P, Mamatqulov M, Raximbekov. R	O'zbekiston tabiiy geografiyasi	Umumta'lim maktablari	Darslik	1996
5	Qurbonov A.S, Burkovskiy Ya	Er yuzida hayvonot olamining paydo bo'lishi	Pedagogika oliygohlari	O'quv qo'llanma	1999
6	Rafiqov A, Vahobov H, Qayumov A, Azimov SH	Amaliy geografiya	Umumta'lim maktablari 10-sinf	Darslik	2000
7	Vahobov H, Tillaboeva M	Iqtisodiy geografiya asoslari			2001
8	Baratov P, Mamatqulov M	O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2002
9	Baratov P, Soatov. A	Umumiy tabiiy geografiya	Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari	O'quv qo'llanma	2002
10	Vahobov.H	Geografiya	Uchebnoe posobie dlya VI-klassa vspomogatel'nykh shkol	Darslik	2003
11	G'ulomov P,	Geografiya	Umumta'lim	O'quv	2003

	Vahobov H, Qurboniyozova R		maktablari o'qituvchilari	qo'llanma	
12	G'ulomov P, Vahobov H, Baratov P	Metodicheskie posobie dlya uchiteley		O'quv qo'llanma	2003
13	Rafiqov A, Vahobov H, Qayumov A, Azimov SH	Amaliy geografiya	Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari	Darslik	2004
14	Vahobov H	Umumiy yer bilimi	Oliy o'quv yurtlari	Darslik	2004
15	Xojimatov A. va b	Atrof- muhitni muhofaza qilish	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2004
16	Xojimatov A. va b	Ekologiya	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2004
17	Xojimatov A. va b	Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2004
18	Xojimatov A. va b	Ekologik monitoringi	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2004
19	Baratov P	O'zbekiston tabiiy geografiyasid an amaliy ishlar	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2005
20	Baratov P, G'ofurov A	Tabiatshunos lik	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2005
21	Vahobov.H	Geografiya	Yordamchi maktablar uchun	Darslik	2007
22	Vahobov.H va b	Geografiyani oqitiw metodikasi	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2010
23	N.R.Alimqulov va b	Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti	Oliy o'quv yurtlari	Monograf iya	2011
24	Vaxobov.H,	Rekratsion	Oliy o'quv yurtlari	O'quv	2012

	Yakubov.O'	geografiya asoslari		qo'llanma	
25	Alimqulov N, Abdullaev I	Amaliy geografiya fanini sohalarga yo'naltirib o'qitish metodikasi	Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari	Metodik qo'llanma	2012
26	G'ulomov P, Vahobov H, Baratov P, Mamatqulov M	Geografiya	Umumta'lim maktablari	Darslik	2013
27	Nizomov va b	Toponimika	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2013
28	Nizomov va b	O'zbekiston ning ekoturistik resurslari va yo'nalishlari	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2013
29	Safarova N, Amanbaeva Z, Gapparov A	Moddiy ishlab chiqarish asoslari	Oliy o'quv yurtlari	O'quv qo'llanma	2013
30	Nurmatov M	O'zbekistond a milliy hunarmandch ilik va turizmni rivojlantirish ning ijtimoiy-geografik xususiyatlari		Monograf iya	2013

ular professor P.Baratov, dotsentlar N.Alimqulov, A.Xojimatov katta o'qituvchi N.Sultonova, F.Saydamatov, I.Islomov, o'qituvchilar M.Abdullaeva, M.Qalandarova, Sh.Xolmurodov, S.Imamxodjaeva, A.Tuxliev, N.Qoraqulov, N.Ermatova va boshqalar kafedrada ishlamoqdalar.

2.2. KAFEDRADA TADQIQOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI.

Kafedrada uch yo'nalishda tadqiqot ishlari olib boriladi:

- 1) *Geografiyaning nazariy va amaliy muammolari.*
- 2) *Geografiya nazariyasi va metodikasi*
- 3) *Tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasi*

Geografiyaning nazariy va amaliy muammolari bo'yicha 1957 yilda F.V.Kovalchuk "Mirzacho'lning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini xo'jalik maqsadlarida tatqiq etish" bo'yicha, 1960 yilda P.Baratov «Zarafshon vodiysining tabiiy geografik sharoiti», 1974 yilda I.Safarov "Surxondaryo viloyati aholi hududiy joylashuvi muammolari", 1975 yilda G.Asanov "Namangan viloyati mehnat resurslari", 1984 yilda B.Mirtursunovlar "Tog' va tog'oldi rayonlari tabiatidan xo'jalik maqsadlarida foydalanish muammolari" tomonidan tadqiq qilingan.

Keyingi yillarda "Xorazm vohasi landshaftlari va ulardan foydalanish muammolari" A.Xojimatov (1996 y), "Qoraqalpog'iston mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari" G.Utepova (2002 y), "O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalari" O'.Yakubov (2004 y), "Jizzax viloyati landshaft-ekologik sharoitini baholash" N.Alimqulov (2008 y), "Boysun tumani misolida tog' hududlaridan foydalanishning geografik asoslari" X.Amonov (2008 y), "Surxondaryo viloyati misolida iqtisodiy geografik o'rinning mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri" N.Safarova (2010 y)lar tomonidan o'rganildi va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

Geografiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi bo'yicha geografiya darslarida O.Mo'minov, «Geografiya darslarida badiiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish» masalalari M.Nabixonov (1968), «Geografiya darslarida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish muammolari» bilan T.Abdullaeva (1967), «O'zbekiston tabiiy geografiya kursini o'rganishda mahalliy natural vositalardan foydalanish» mavzusida M.Yunusova (1979)lar ilmiy tadqiqotlar olib borgan va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilganlar. 2006 yil

kafedrada R.Gaipova dots. M. Nabixonov rahbarligida “Tabiiy geografiya boshlang’ich kursida mahalliy ko’rgazma vositalaridan foydalanishning uslubiy asoslari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Kafedrada “Geografiya” mutaxassisligi (2000-2010yy.), “Amaliy geografiya” mutaxassisligi bo’yicha (2010-2012yy.), 2012 yildan boshlab “Geografiya o’qitish metodikasi” mutaxassisligi bo’yicha magistratura faoliyat ko’rsatmoqda. 2002 yildan boshlab kafedrada “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari”, 2011 yildan boshlab “Geografiya o’qitish metodikasi” yo’nalishi bo’yicha yuqori malakali bakalavrlar tayyorlash yo’lga qo’yildi.

Kafedrada 11.00.01-Tabiiy geografiya, landshaftlar geofizikasi va geokimyosi bo’yicha doktorantura hamda 13.00.02-Aniq va tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi (geografiya) ixtisosligi bo’yicha katta ilmiy xodim izlanuvchilar faoliyat ko’rsatadi.

Ilmiy kadrlar tayyorlash borasida ham samarali ishlar qilinmoqda. Xususan, hozirgi kunda kafedrada 2 ta katta ilmiy xodim izlanuvchi (doktorant) (X.Amanov,A.Rasulov) ilmiy ishlarini olib bormoqdalar. Kafedra professor-o’qituvchilari tomonidan hozirda “Geografiyaning nazariy va amaliy muammolari”, “Geografiya nazariyasi va metodikasi”, “Tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasi” yo’nalishlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Kafedra tadqiqotchilari tomonidan F.R.Saydamatov “O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o’qitish texnologiyasi” mavzusida, N.B.Sultonova “Geografiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlaridan foydalanish” (O’zbekiston tabiiy geografiyasi misolida)” mavzusida, M.Nurmatov “O’zbekistonda xunarmandchilik va turizmni rivojlantirishning geografik asoslari” mavzusida, I.Islomov “Shahar atrofi qishloq xo’jaligini rivojlanishning xozirgi xolati va istiqbollari” mavzusida, S.Imomxodjaeva “Otsenka kachestva znaniy studentov s ispolzovaniem IKT” mavzusida, M.Qalandarova “Ta’lim jaryonida o’quvchilarga individual yondashish asosida intellektual o’qitish texnologiyasi” mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishida 2004 yilda Z.Amanbaeva «Ohangaron daryo vodiysi geoekologik sharoitini baholash» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Kafedrada hozirgi paytda kafedra o'qituvchisi SH.Xolmurodov «Sangzor vodiysi geoekologik sharoitini baholash» va katta ilmiy xodim izlanuvchi A.Rasulov «Zarafshon vodiysi geoekologik sharoitini baholash» bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ilmiy salohiyatni yanada oshirish maqsadida kafedraga O'zMU "Geografiya" fakulteti "Iqtisodiy geografiya va demografiya" kafedrasini professori, g.f.d., A.Soliev, "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasini professori g.f.d. A.Qayumov, "Ekologiya" kafedrasini professori g.f.d. A.Nig'matovlar o'rindosh sifatida ishga taklif qilgan.

"Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasini professor-o'qituvchilari tomonidan quyidagi darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratilgan:

- umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun geografiya fanidan chop etilgan darsliklar - 3 ta
- umumiy o'rta ta'lim maktablari geografiya o'qituvchilari uchun chop etilgan metodik qo'llanmalar - 3 ta
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun geografiya fanidan chop etilgan darsliklar - 3 ta
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari geografiya o'qituvchilari uchun chop etilgan metodik qo'llanmalar -1 ta
- pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun chop etilgan darsliklar - 4 ta
- pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun chop etilgan o'quv qo'llanmalar - 10 dan ortiq.

Kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan 26 ta fandan "O'quv uslubiy majmua"lar yaratilib mashg'ulot davomida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan uyg'un foydalanish amalga oshirilgan. Ya'ni geografiya darslarida xususiy metodik va lokal texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan.



Kafedraning hamkorligi. Kafedra Toshkent shahridagi Oliy, o'rta maxsus, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan xamkorlik qiladi:

- O'z RFA qoshidagi Seysmologiya instituti geografiya bo'limi
- Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti
- Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU
- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası
- Toshkent moliya instituti "Iqtisodiy geografiya va ekologiya" kafedrası
- Zangiota tumani maishiy xizmat va tadbirkorlik kasb-xunar kolleji.
- Respublika musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan akademik litsey.

- Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi

- Sergeli tumanidagi 277-umumta'lim o'rta maktabi
- Mirobod tumanidagi 214-umumta'lim o'rta maktabi
- Sergeli tumanidagi 300-umumta'lim o'rta maktabi
- Xamza tumanidagi 151-umumta'lim o'rta maktabi

Respublikada turdosh oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik

- Qarshi Davlat Universiteti
- Guliston Davlat universiteti
- Nukus Davlat pedagogika instituti
- Jizzax Davlat pedagogika instituti
- Toshkent viloyati Davlat pedagogika instituti
- Navoiy Davlat pedagogika instituti
- Qo'qon Davlat pedagogika institutlari bilan faoliyat olib boradi

III BOB. GEOGRAFIYANI O'QITISHDA METODIST OLIMLAR FAOLIYATINI O'RGANISH METODIKASI.

3.1. KAFEDRA YETAKCHI METODIST OLIMLARNING GEOGRAFIYA TA'LIMIGA QO'SHGAN HISSASI

ORTIQ ABDULLAEVICH MO'MINOV

Iqtidorli, zahmatkash ustoz-geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha birinchi o'zbek fan nomzodi, shu soha-geografiya ta'limi metodikasi sohasida Markaziy Osiyoda birinchi va yagona professor **Ortiq Abdullaevich Mo'minov** 1924 yil 21 mart kuni Toshkent shahrida tavallud topganlar.

1941 yilda Toshkentdagi 24-sonli o'rta maktabni a'lo baholar bilan bitirganlar. 1941-1947 yillar mobaynida Toshkent shahar sobiq Oktyabr (hozirgi SHayhontoxur) tuman harbiy komissariatining yo'llanmasi bilan Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida tashabbuskorlik bilan mehnat qilganlar.

O.A.Mo'minov 1949 yildan boshlab Toshkent kechki pedagogika institutining geografiya bo'limida ta'lim olib, uni 1954 yilda imtiyozli diplom bilan tugatganlar. 1955 yil 1 sentyabrdan boshlab Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti (universiteti)da assistent (1955-1956), o'qituvchi (1956-1959), katta o'qituvchi (1959-1970), dotsent (1970-1986) va professor (1986-1995) lavozimlarida ishlab, "Geografiya ta'limi metodikasi", "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" hamda "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" o'quv fanlaridan yuqori saviyada qiziqarli ma'ruzalar o'qiganlar, talabalarga ta'lim-tarbiya berganlar.

Institutdagi faoliyatlari bilan birga 1948 yildan 1977 yilgacha Toshkent shahridagi 35-sonli yetti yillik, yana shuningdek 24, 15-sonli va 22-sonli o'rta ta'lim maktablarida ham geografiya fanidan saboq berib, o'quvchilar va maktab jamoasining e'tiboriga sazovor bo'lganlar. Ta'lim bilan ilmiy pedagogik tadqiqot ishlarini birga qo'shib olib borib, 1967 yilda professor P.Baratov rahbarligida "O'zbek maktablarida geografiya ta'limi masalalari" mavzuida nomzodlik

dissertatsiyasini himoya qilib, Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib, geografiya ta'limi metodikasidan pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishganlar.

Nomzodlik ishlarida o'zbek maktablarida geografiya o'qitishning tarixiga oid boy ilmiy ma'lumotlarni ochib berganlar. Xususan, O'rta Osiyoda geografiya fanining ildizlari uzoq tarixga borib taqalishi, bunda allomalarimiz Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy, Ulug'bek, Zahriddin Boburlarning geografiyaga oid ilmiy meroslarini to'liq ochib berish bilan birga ularning merosidan geografiya ta'limida foydalanish yo'llarini ko'rsatib berganlar. Ishda o'zbek maktablarida geografiya fanlarini o'qitish tarixining o'ziga xos bosqichlarini ajratganlar. Shuningdek, o'zbek maktablarida tabiiy geografiyani o'qitishning o'tgan asrning 60-yillaridagi holati, bu borada jombozlik ko'rsatgan geograf va metodist olimlar N.Dolimov, Z.Akramov, H.Hasanov, M.Qoriev, A.Omilov, M.Nabixonov, P.Musaevlarning geografiya ta'limi va uni o'qitish metodikasini takomillashtirishga qo'shgan hissalarini batafsil yoritib berganlar. O'sha davr bosqichida o'zbek maktab geografiyasining asosiy vazifalari, geografiya fanlari tizimi va o'zbek maktablari uchun yaratilgan tabiiy geografiyadan o'quv dasturlarining ayrim xususiyatlari, tabiiy geografiya bo'yicha darsliklarga qo'yiladigan asosiy talablar, geografiya darslari, tabiiy geografik bilimlarni shakllantirishining asosiy yo'llari, geografiya darslari jaroyonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil ishlarini tashkil etish, xaritashunoslik manbalari va o'quv darsliklari bilan ishlash, geografik atamalar va nomlarni o'rganish, geografiya darslarida sinf yozuv taxtasi (doska)dan foydalanish, geografiya daftari va uning mazmuni, tabiiy geografiya fanlarini o'qitishdagi o'quv-moddiy asosni yaxshilash, tabiiy geografiyadan sinfdan tashqari amalga oshiriladigan ishlar kabilar mukammal yoritilgan va shu sohalarga ta'luqli tavsiyalar berganlar.

Ortiq Abdullaevich nafaqat sof geografiya, balki boshqa turli soha va mazmundagi kitoblar (jami 200 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop hamda ilmiy-metodik kitoblar, risolalar domla qalamiga mansub) muallifi hamdir. Ushbu kitoblarning mohiyati va amaliy ahamiyati inobatga olinib, 1986 yilda ustozga

“Geografiya ta’limi metodikasi kafedrasining professori” degan ilmiy unvon va professorlik attestati topshirilgan.

Professor O.A.Mo’minov geografik atamalar va nomlarni tahlil etib, uning muayyan miqdorda tartibga tushuviga munosib hissa qo’shgan olimlardan. Geografiya ta’limi metodikasi rivojiga munosib hissa qo’shgan ustozning malakali ilmiy xodim va geografiya muallimlari tayyorlashdagi xizmatlari juda katta. U kishining bevosita rahbarliklarida 3 ta geograf-uslubiyotchi pedagogika fanlari nomzodligi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilgan, ustoz o’ntadan ziyod nomzodlik dissertatsiyalariga ilmiy maslahatchi, 5 ta izlanuvchining nomzodlik dissertatsiyasi ishiga rasmiy opponent bo’lganlar. O’zbekiston Xalq maorifi (hozirgi Xalq ta’limi) vazirligi o’quv-metodik kengashinig qaroriga binoan professor Ortiq Mo’minovning ilg’or ilmiy-pedagogik faoliyati respublika miqyosida ommalashtirilgan. Tadqiqot natijalari respublika ommoviy axborat sahifalarida maktab o’qituvchilariga yetkazib turilgan.

Ustoz Atlantika va Hind okeanlari suvlarida suzgan, Ural, Kavkaz, Tyanshan va Oloy tog’lari hamda Hindiston bilan Shri-Lankani kezman. Shimolda Shimoliy Muz okeani sohillaridagi tundra tabiat mintaqasidan tortib, janubda Hind okeani sohillaridagi nam tropik o’rmonlargacha barcha tabiat mintaqalariga sayohat qilgan vaqtlarida, tabiatni tabiatshunos-geograf olim sifatida mushohada etib, olgan tassurotlarini ko’plab ilmiy-ommabop kitoblar (“Qiziqarli geografiya”, “Turfa olam”, “Ajoyib tabiatli o’lka”, “Jozibali o’lka”)da hamda turli jurnal va gazetalar sahifalarida qiziqarli, ommaga tushinarli tarzda yoritib berganlar.

Bundan tashqari maktab o’quvchilari uchun “Tabiatshunoslik”, “O’zbekiston tabiiy geografiyasi” o’quv darsliklari (bir necha qayta nashr etilgan), “Tabiiy geografiya ta’limi metodikasi”, “Zamonaviy geografiya darsiga qo’yiladigan talablar”, “Jo’g’rofiya atamalar lug’ati” kabi o’quv-uslubiy qo’llanma va risolalarni ham yozib qoldirganlar. Ular hanuz o’z mazmun-moxiyatini, ilmiy salohiyatini yo’qotganicha yo’q.

Ustoz professor O.A.Mo’minov oliy jo’g’rofiya ta’limida kompyuter texnologiyasini birinchilardan bo’lib joriy qilgan serqirra ijodkor bo’lib, geografiya

ta'limida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarning tamal toshini qo'yishga asos solganlar.

Ortiq Mo'minov geografik bilimlarni keng omma orasida tarqalishiga ham munosib hissa qo'shganlar. Ustozning bevosita tashabbusi bilan O'zbekiston televideniyasida "Olamga sayohat" ko'rsatuvi, radioda "Sirli olam" eshittirishi tashkil etilib, ularni tinglovchilarga ma'qul tushadigan, qiziqarli darajada shahsan o'zlari boshlovchi sifatida olib borganlar.

"Tabiatni astoydil sevishim, meni geografiya ilmiga qiziqtirgan"—der edilar ustoz. Shu tufayli O.A.Mo'minov tabiatshunos sifatida suvsiz tepaliklarga suv chiqarib, qo'riq ochgan va anvoyi gullar, turli noyob manzarali hamda mevali daraxtlardan iborat bog'lar ham yaratganlar. Mahalla va xonadonlari atrofidagi ko'chalarning obodligi hamda saramjonligiga katta e'tibor berganlar, doimo shu ishlarda o'zlari bosh-qosh bo'lib qo'llaridan kelgan mehnatlarini ayamaganlar.

Professor O.A.Mo'minov o'zlarining butun ongli hayotlari va faoliyatlarini eng ulug', xayrli ish yoshlar ta'lim va tarbiyasiga bag'ishlagan desa mubolag'a bo'lmaydi.

Afsus, 2004 yil 18 mart kuni roppa-rosa 80 yoshni qarshilagan ustozni o'lim bu dunyodan olib ketdi. Mirortiq Mirabdulloh o'g'li (O.Mo'minov) qamrovi keng, shogirdlariga mehribon, o'zgalarga oqibatli murabbiy va haqiqiy kamtarin inson edilar, ohiratlari obod bo'lsin.

NABIXONOV MUXITDIN

Ustoz Nabixonov 1920 yil 27 aprelda Toshkent shahrida tavallud topganlar. Otalari Mulla Nabixonov sayru—sayohat hamda adabiyotni dildan sevganlar.

Shu tufayli Muxitdin domlani kichkinaliklarida Turbat, Chimkent, Jambul va Bo'stonliqda olib borardilar. Dadalari Navoiy, Fuzuliy, Muqimiy, Tavallo she'rlarini yoddan bilar va uni farzandlariga aytib berar edilar. Otalaridagi bu fazilat Muxitdin akaga muayyan darajada ta'sir etganligi ayon.

M.Nabixonov yetti yillik maktabda (hozirgi M.Uyg'ur nomidagi) o'qiganlar. Maktabda Ma'ruf Qoriev, Turob To'la, Po'lat Mo'min kabi el suygan farzandlar

bilan hamsuhbat bo'lganliklarini hech vaqt unutmaydilar. 8-sinfni 14-maktabda davom ettirdilar. Maktab chog'larida ilg'or o'qituvchi-pedagoglar Oqilxon Sharofiddinov, Tohir Sodiqov kabi ustozlardan ta'lim olganlar, ular ta'sirida bo'lganlar (Xojimatov A.N, Qambarova D.M, 2005).

M.Nabixonov 1938 yilda maktabdosh do'stlari Akrom Obidov va Axror Ahmadjonovlar bilan birga SAGU (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteta)ning "Geografiya" bo'limiga hujjat topshirib, imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tishadi. Talabalik davrlarida geologiya bo'limidagi talabalar: Ibroxim Hamroboev, Majid Zokirov, biolog Tesha Odilovlar bilan do'stlashadilar.

Talabalik chog'lari professorlar: N.G.Malitskiy, L.A.Molchanov, N.A. Korjenevskiy, M.G.Kadek, V.M.Chetarkin, O.Yu.Poslavskeya kabi yetuk geograf olimlar ma'ruzalaridan bahramand bo'lganlar. 1943 yili universitetni tamomlab. "Iqtisodiy geografiya" kafedrasiga aspirantlik qabul qilinadilar. Professor V.M.Chetirkin ilmiy rahbarligida "Mirzacho'lning iqtisodiy geografik tafsiloti va undan xo'jalikda foydalanish" mavzusidagi nomzodlik ishi tadqiqotini boshlaydilar.

1945 yil 10 noyabr kuni domlanning boshlariga og'ir kulfat tushadi. Uylarida tintuv o'tkazilib, A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini topib oladilar va o'zlari bilan kitobni Davlat xavfsizlik Qo'mitasi (KGB) ga olib ketadilar. Antisovet faoliyati uchun qatag'on qilingan, "xalq dushmani" A. Qodiriyning tadqiq qilingan kitobini uyida asragan deb ayb qo'yib, jinoyat kodeksining 66-moddasi bilan M.Nabixonovni uch yil ozodlikdan mahrum etadilar.

M.Nabixonov 1948 yili 10 noyabrda qamoqdan ozod bo'ladilar, ammo o'zlari yashagan uylarida yashashga ruxsat berilmaydi. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi yullanmasi bilan Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumaniga ishga yuboriladilar. U yerda avval maorif inspektori, so'ng maktab direktori lavozimiga tayinlanadilar. Afsuski, tuman firqa qo'mitasi kotibi "qatog'onga uchragan" deb maktab direktorligidan bo'shatib yuboradi. Universitetdosh do'stlari Zoir Zokirov yordamida Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi Obliq qishlog'iga keladilar va maktabda ilmiy mudir hamda geografiya o'qituvchisi bo'lib

ishlaydilar.

Qamoqdan chiqib 6 yil o'tadi va nihoyat 1953 yili mart oyida "qamalgan" tamg'asidan holi bo'ladilar, 1954 yilning yozida, qariyb 10 yildan so'ng uylariga, ona shahrlari Toshkentga qaytadilar. Ish faoliyatini o'zlari tamomlagan 14—maktabda geografiya o'qituvchiligidan boshlaydilar. 1954 yil kuzida Toshkent shahar xalq ta'limi bo'limiga geografiya metodisti — inspektor lavozimiga ishga o'tadilar.

M.Nabixonov 1955 yili o'rindosh tarzida (0,5 stavka) Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika instituta (Universiteta)ga ishga o'tgan bo'lsalar, hayot faoliyatlari 1956 yil sentyabrdan to shu kungacha deyarli yarim asr mana shu oliygoh bilan muttasil birga faoliyat olib bordilar. Domla ushbu dargohda 1956 yildan assistent, 1960 yili katta o'qituvchi, keyin dotsent, uzok yillar kafedra mudiri, dekan o'rinbosari, dekan vazifalarini bajardilar.

O'tmish, xotira, iztiroblar domlanning ilm fanga bo'lgan intilishi va qiziqishini so'ndira olmadi. 1967 yili bahorida M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universitetida birinchi malaka oshirish kursida bo'lib, nomzodlik dissertatsiyasini yozishga kirishadilar.

"Hassos shoir Hamid Olimjonning mashhur "O'zbekiston" she'ri domlada geografiya darslarida badiiy adabiyotdan foydalanish g'oyasini uyg'otgan" — deydi M.Nabixonov. Bu fikrni moskvalik professorlar: A.I. Salovev va A.E.Bibik va boshqalar ham ma'qullaydilar. Tinimsiz mehnat, izlanish, tadqiqotlar natijasi 1969 yili 29 iyunda "Badiiy adabiyot materiali bilan manzara (peyzaj) va hujjatli kino filmlaridan geografiya darslarida foydalanish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi himoyasi bilan yakunlanadi.

Bunda ustoz ta'lim-tarbiya ishida yangi, faol metod va yangi texnologiyalardan hamda qo'shimcha adabiyot va ko'rgazmali qurollardan tobora samarali foydalanish bu vazifani amalga oshirishda muhim boy metodik tavsiyalar meros sifatida qolgan. Chunki ayni zamonda o'qituvchi-pedagoglar oldiga ta'lim-tarbiya ishlarini hozirgi zamon fan-texnikasi va madaniyati talablari darajasiga ko'tarish asosiy vazifa qilib qo'yilgan.

Domlaning “Geografiya darslarida badiiy va boshqa qo’shimcha adabiyot materiallaridan foydalanish” metodik qo’llanmasining tarbiyaviy ta’siri g’oyatta kattadir. Ushbu ilmiy merosda avtor o’zbek maktablarining geografiya darslarida badiiy va boshqa qo’shimcha adabiyotlardan foydalanishdagi ko’p yillik tajribasini biz kabi yosh o’qituvchilarga bayon etish orqali ularga bir oz bo’lsa ham ko’maklashishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan.

Bunda badiiy va boshqa qo’shimcha adabiyot materiallari darslik materiallarini boyitadi, aniqlashtiradi va oydinlashtiradi. Badiiy adabiyot o’quvchilarning his-tuyg’ularini qo’zg’ab, ularning geografiya darslariga bo’lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi. Bu bilan maktab dasturida ko’rsatilgan mavzularning oson o’zlashtirilishiga va o’quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qolishiga yordam beradi.

Dotsent M.Nabixonovning 100 dan ortiq ilmiy uslubiy maqolalari, jurnal, to’plami va boshqa matbuot sahifalarida nashr etilgan. Shuningdek, o’nga yaqin o’quv va metodik qo’llanmalar ham domla qalamiga mansub.

M.Nabixonov O’zbekiston Respublikasi “Xalq ta’limi a’lochisi”, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining “Ustoz” unvoni hamda “Shavkatli mehnat uchun” medaliga sazovar inson.

ABDULLAEVA TURSUNOY BOLTABOEVNA

Abdullaeva Tursunoy Boltaboevna pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Olima Tursunoy opa Abdullaeva 1934 yil 19-noyabrda Toshkent shahrida hozirgi Shayhontohur tumanidagi “Obi Nazir” mahallasida tavallud topganlar. Oilalari 7 ta farzanddan iborat bo’lib, otalari temir yo’l ishchisi, onalari uy bekasi bo’lishgan.

Ustoz o’rta ma’lumotni 38-o’rta maktabda olganlar. Yoshlikdan sayru sayohatni yaxshi ko’rgan Tursunoy Abdullaeva ko’p vaqtlarini shahar atrofi qishloqlaridagi xolalari, tog’alarinikida o’tkazishga intilar edilar. “Bahordagi yalpiz terish, tandirdan uzilgan issiqqina nonlarni suvda oqizoq qilib yeyish, hovli supirib suv sepish jonu dilim edi”,-deb eslaydilar. Qizlar davrasidagi bosh-qoshlik opani o’qituvchilikka undagan birinchi turtki bo’lgan bo’lsa ajabmas.

T.Abdullaevaning maktab davri ham II Jahon urushi yillariga to'g'ri kelgan. Boshlang'ich sinf davridagi och-nohor 1 ta eski kovushni 2-3 kishi kiyib navbatma-navbat maktabga borish, sovuqda qiyналgan kunlar nafaqat opaning, balki u kishi zamondoshlari yodidan ham sira chiqmasa kerak (Xojimatov A.N, Qambarova D.M, 2005).

Ustoz 6-sinfda geografiya fanidan marhum Akbar Omilov dars bera boshlaganlari T.Abdullaevani ilk geografiya ilmiga qiziqtirgan. Shu tufayli bo'lsa kerak Abdullaeva T.B: "Umrinning oxirigacha birinchi ustozim xurmatli Akbar aka Omilov bo'lib qoladilar", deb yozadilar.

Domla A.Omilovga bo'lgan hurmat va ehtiromni opada ko'rib g'ayratlanmadik, chunki u kishi to'g'risida ozmi-ko'pmi eshitganmiz. Tursunoy opa maktabdan uyga kelib: "Bizga bir o'qituvchi keldi, xaritani orqasi bilan ham ko'rар ekan"-deb maqtangan ekanlar.

Tursinoy opa 1951-yili maktabni tamomlab shu maktabdagi 11-pedagogika sinfiga o'qishga kiradilar. 1952-yilda pedagogika sinfini bitirib, hozirgi TDPU binosidagi Belinskiy nomli kechki pedagogika institutining geografiya fakultetida o'qishni davom ettiradilar. Kunduzi o'zlari o'qigan maktab (38-son)da boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlay boshladilar.

Geografiya fanlari nomzodi, dotsent A.V. Xisomovni opa o'zlarning ikkinchi ustozlari deb biladilar. Shuningdek, Tursunoy opa o'zbek geograflarining otaxonlaridan biri N.Dolimovning saboklariga ham muyassar bo'lganlar.

Abdullaeva T. B. 1957 yilda institutni tugallab, 1960 yil sentyabrdan Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya" kafedrasiga assistent lavozimigi ishga o'tadilar.

Ustoz-muallima 1963-1966-yillarda aspiranturada tahsil oladilar, ilmiy faoliyatlari professor A.V.Darinskiy hamkorligida davom etib, "Tabiiy geografiya kurslarini o'qitishda O'zbekiston tabiiy sharoiti o'rganish" mavzusidagi nomzodlik ishi 1967-yil 11-sentyabrda muvoffaqiyatli himoya etiladi.

Ustoz geografiya o'qitish metodikasi bo'yicha pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishgan birinchi o'zbek ayolidir.

Abdullaeva T.B. 1966-1969 yillarda “Boshlangich ta’lim pedagogikasi” kafedrasida katta o’qituvchi, 1969-1974 yillarda “Iqtisodiy geografiya” kafedrasida dotsent, 1974-1975 yillarda “Tabiiy geografiya” kafedrasida mudirlik vazifasini bajaruvchi, 1992-1994 yillar “Geografiya kafedrası” mudiri, 1994-1996 yillarda dotsent lavozimlarida samarali mehnat qilganlar.

Dotsent Abdullaeva T.B. hayot faoliyatining ikkinchi qirrasi 1975-yilgacha maktabda geografiya o’qituvchiligida ko’p samara berdi. Bu davrda dars jarayonida o’quvchilar faolligini oshirishga doir izlanishla olib bordilar. Ish tajribalari shahar o’qituvchilari orasida keng ommalashtirildi. Faoliyatlari natijasida “Ilg’or pedagogik tajribalar minbari” sifatida nashr etilgan. Ustozning qalamiga mansub qator qo’llanma, darsliklar qayta-qayta nashr etilgan. Ko’plab yozilgan metodik maqolalari Respublikamizning nufuzli nashrlarida chop etilgan. Shularning barchasini inobatga olib Tursunoy Boltaboyevnaga 1966-yili “Xalq maorifi a’lochisi” ko’krak nishoni berilgan. 1991 –yilning may oyida opani “Respublikada xizmat ko’rsatgan xalq maorifi xodimi” unvoniga tavsiya edi.

BARATOV PATTOX

Ustoz Pattox Baratov geografiya kafedrası va geografiya ta’limiga ulkan hissa qo’shgan olimdir. Domla universitetning sobiq talabasi sifatida ish faoliyatini 1954 yili Nizomiy nomidagi pedagogika institutini, 1957 yili aspiranturani tugatgandan boshlab, kafedrada talabalargi ta’lim-tarbiya berish bilan birga fan uchun boy ilmiy meroslar, kafedraning yosh ilmiy tadqiqotchilariga qimmatli ilmiy maslahatlari bilan faoliyatini hozirgacha davom ettirib kelmoqda. Professor P.Baratov qalamiga mansub 210 dan ortiq ilmiy va ilmiy-metodik maqola hamda o’quv qo’llanmalar mavjuddir. Shu jumladan hozirda oliy o’quv yurti, akademik litsey va kasb – hunar kolleji hamda umum’talim maktab o’quvchilari uchun 17 ta darslik o’quv qo’llanmalar muallifidir.

P.Baratov, M.Rasulov va boshqalar hamkorligida O’zbekistonda birinchi bo’lib Oliy o’quv yurti talabalari uchun “Tabiatni muhofaza va o’zgartirish” (O’qituvchi, 1980) o’quv qo’llanmasini yaratganlar. Shuningdek, P.Baratov qalamiga mansub (oliy o’quv yurti talabalari uchun) “O’zbekiston tabiiy

geografiyasi” (O’qituvchi, 1996), “O’zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy ishlar” (Cho’lpon, 2005), “Yer bilimi va o’lkashunoslik” (O’qituvchi, 1980), geografiya o’qituvchilari uchun “Tabiatni muhofaza qilish” o’quv qo’llanma (O’qituvchi, 1991), M.Mamatqulov, A.Rafiqov hamkorlikda “O’rta Osiyo tabiiy geografiyasi” (O’qituvchi, 2002) ga oid boy ilmiy asari allaqachon qo’lma-qo’l bo’lib o’z kitobxonlarini topgan, A.Soatov bilan hamkorlikda (akademik litsey va kasb – hunar kolleji talabalari uchun) “Umumiy tabiiy geografiya” (O’qituvchi, 2001, 2013 yillar), A.T.G’ofurov bilan hamkorlikda “Tabiatshunoslik” (Cho’lpon, 2005) umumta’lim maktab 7-sinfi o’quvchilari uchun M.Mamatqulov, (X.Vaxobov) bilan hamkorlikda “O’zbekiston tabiiy geografiyasi” (to’rtinchi nashri, O’qituvchi, 2013) darsliklar (rus, qozoq, tojik, qirg’iz, turkman, qoraqalpoq tillarida) nashr qilingan va taxlil jarayonida qo’llanilmoqda.

Ustoz tomonidan O’rta Osiyo tabiat komplekslari va tabiiy resurslari, ulardan oqilona foydalanib muhofaza qilishga qaratilgan 4 ta monografiya va o’ndan ortiq ilmiy – omabop risolalar muallifidir.

P.Baratov O’rta Osiyoda suv muammolari ularning xalq xo’jalikdagi ahamiyati suv boyliklarini tejab, oqilona foydalanib muhofaza qilishga bag’ishlangan “O’rta Osiyo daryolari va ularning xo’jalik ahamiyati” (Fan, 1967), K.Xalmatov bilan hamkorlikda “O’rta Osiyo daryolarining xo’jalik ahamiyati” (O’zbekiston, 1981) kabi monografiyalari shu muommoga bag’ishlangan. Unda (sobiq ittifoq) sovet davrida paxta yakka hokimligi yillarida qo’riq yerlarni betartib o’zlashtirish oqibatida, daryo suvlaridan xo’jasizlarcha foydalanish tufayli Amudaryo va Sirdaryo suvlari Orolga yil sayin kam quyish natijasida uning sathi pasayib ketganligi haqida o’z mulohazalarini bildiradi.

O’rta Osiyo hududining ko’p qismi cho’llardan iborat bo’lib, tabiiy resurslarga boy. Cho’llardan qishloq xo’jaligining turli sohalarida foydalanish barobarida sanoat tarmoqlarini har xil xom ashyo bilan ta’minlab turibdi. Chunki so’nggi yillarda O’rta Osiyo cho’llarida turli xil qazilma boylik konlari topildi, ulardan tashqari cho’llarda Quyosh energiya miqdori juda katta bo’lib (gelodastgohlar yil bo’yi ishlab tursa) 1,4 mlrd. Kvt ni tashkil etadi, undan tashqari

tugamaydigan shamol energiyasi ham mavjud. P.Baratovni “O’rta Osiyo cho’llari inson izmida” (Fan, 1980) risolalari shu muammolarga bag’ishlangan.

Tabiat va tabiiy boyliklari jihatidan O’rta Osiyoda Zarafshon vodiysi, Farg’ona vodiysida xalq xo’jaligida muhim ahamiyatga ega. Zarafshon vodiysida Samarqand, Navoiy, Buxoro kabi viloyatlar joylashgan, binobarin uning tabiiy komponentlari va tabiiy resurslarni o’rganish muhim ahamiyatga ega. P.Baratovni “Природные ресурсы долины Зарafshon и их использование”, (Fan, 1977) monografiyasi ham shu masalaga bag’ishlangan. U o’zining 1962 yil chop etilgan “Kaspiy dengizi taqdiri”, “Dengizda suv yetishmaganda” (Fan, 1969) degan risolasida orol dengizi haqida ham to’xtalib, birinchilar qatorida uni suv sathini pasayish sabablari, uning salbiy oqibatlarini oldini olish haqida o’z mulohazalarini bildirgan.

P.Baratov o’quv – tarbiyaviy, ilmiy, ilmiy – metodik ishlar olib borish barobarida yetuk ilmiy xodimlar tayyorlashga ham o’z hissasini qo’shgan. Uning ilmiy rahbarligida O.A.Mo’minov, M.Nabixonov, R.Saidova, A.Oltibaevlar nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaganlar. U bir qancha dissertatsiyalarga ilmiy maslahatchi va opponent bo’lgan.

Sermahsul, serqirra ijod va mustahkam iroda sohibi, kamtarin ustoz Pottoxhoji Barat o’g’liga faqat oilaviy xotirjamlik va salomatlik tilab, domlaning ilmiy salohiyati va pedagogik mahorati hali ko’plab yosh avlodlarga, ilmiy tadqiqotchilarga ustozlik qilishga hamda kafedraning ilmiy-metodik ishlarini yanada boitishga ishonamiz.

NIZOMOV ASROR

Nizomov Asror domla Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida 1956 yili tavallud topgan.

1973-1978 yillar Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat Universitetining «Geologiya» fakultetida taxsil olgach, 1979 yildan GIDROINGEO ilmiy-tadqiqot institutida avval katta laborant, keyinchalik kichik ilmiy xodim sifatida ilmiy faoliyatini boshladi. Bir necha dala ekspeditsiyalari davrida to’plagan materiallari

asosida O'zbekistonning tog'li hududlari bo'ylab karst buloqlarning tabiiy-geografik xususiyati borasidagi dastlabki ilmiy maqolalari yuzaga keldi. A.Nizomov karst buloqlari geografiyasi bilan birgalikda qomusiy bilimlar sohibi Abu Rayxon Beruniyning geografik merosi, uning o'rganilmagan qirrasini, gidrogeologiya faniga qo'shgan hissasi to'g'risida ham qator tadqiqotlar olib bordi. 1983 yili GIDROINGEO institutida maqsadli aspiranturaga qabul qilindi.

1985 yili «FAN» nashriyoti A.Nizomovning «Chuchuk suv manba'i» nomli dastlabki risolasini nashr etdi.

1989 yili A.Nizomov dissertatsiya ishini muvoffaqiyatli yoqladi. Shu yili «Mehnat» nashriyoti uning «Xisor buloqlari» nomli ikkinchi kitobini nashr etdi. A.Nizomov bu davr ichida respublikamizning barcha hududlari bo'ylab uyushtirilgan o'ndan ortiq ilmiy ekspeditsiyalar karst suvi bilan birgalikda qadimgi gidrotexnik inshootlarning zamonamizdagi ahamiyati borasida ham tadqiqotlar olib bora boshladi. Natijada uning fan yo'laidagi ikkinchi qirrasini ochildi va shu borada qator tadqiqotlar yaratildi. 1994 yildan A.Nizomov nafaqat dala tadqiqotchisi, balki pedagog sifatida ham ToshDU (Hozirgi O'zMU) «Umumiy ekologiya» kafedrasida 2003 yildan esa Nizomiy nomli TDPU da faoliyat ko'rsata boshladi.

Bu kunga qadar A.Nizomovning oltmishdan ortiq ilmiy, o'ttizdan ortiq ilmiy-ommabop maqolalari, risolalari mavjud. «Sharq yulduzi», «Yoshlik», «Sog'lom avlod uchun» jurnallarida, respublikaning markaziy gazetalarida xikoya, bade'a va qissalardan iborat o'ndan ortiq badiiy asarlari ham e'lon qilingan. O'zbekfilm tomonidan A.Nizomov muallifligida «Sardoba», «Chink», «Borsa kelmas» nomli ilmiy-ommabop kinofilmlari suratga olingan. Uning asarlari bir-necha bor konkurslar g'olibi, mukofotlar sovrindori bo'lgan. 2008 yili «O'zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasi» nomli yirik monografik asari chop etildi.

ALIMQULOV NUSRATULLA RAXMONKULOVICH

Nizomiy nomidagi TDPU «Geografiya va uni o'qitish metodikasi» kafedrasini mudiri, geografiya fanlari nomzodi. 1975 yil 6 fevralda Jizzax viloyati G'allaorol

tumanida tug'ilgan. 1998 yilda universitetning geografiya-biologiya ixtisosligini bitirgan. 2008 yilda professor X.Vaxobov rahbarligida "Jizzax viloyatining landshaft-ekologik sharoitini baholash" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Universitetdagi faoliyati 1999 yil "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida o'qituvchilikdan boshlagan. So'ngra 2000-2003 yillarda fakul'tet dekanining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha" o'rinbosari, 2003-2006 yillarda universitet kunduzgi bo'lim aspiranti, 2006-2010 yillarda kafedra katta o'qituvchisi, 2011 yildan kafedra mudiri. Hozirgi paytda ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishi – O'zbekiston landshaft-ekologik sharoitini baholashga va geografiya ta'limida ekologik talim-tarbiya muammolariga qaratilgan. N.R.Alimqulov 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta monografiya, 5 ta o'quv uslubiy majmua, 9 ta o'quv fan dasturlari va 30 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar muallifi.

XOJIMATOV ALISHER NIGMATOVICH

Xodjimatrov Alisher Nigmatovich 1958 yil 8-mayda Toshkent viloyati Qibray tumanida xizmatchi oilasida tug'ilgan. 1976-1981 yillarda Nizomiy nomidagi TDPUning «Tabiyot-geografiya» fakul'teti «Geografiya-biologiya» ixtisosligida ta'lim olib, uni 1981 yilda imtiyozli diplom bilan tugatgan. Xodjimatrov Alisher Nigmatovich 1996 yilda «O'zbekiston cho'l mintaqasi vohalar landshaftlari; holati, baholash va mumkin bo'lgan o'zgarishlar prognozlash» (Quyil Zarafshon va Amudaryo agrogeotizimlari misolida) mavzusida ilmiy ishini himoya qilgan (g.f.n). Xodjimatrov Alisher Nigmatovich ilmiy faoliyat davomida, 10 ta o'quv qo'llanma, 6 ta ma'ruzalar matni, 1ta risola, 1ta o'quv uslubiy majmua, 50 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalar va 10 dan ortiq o'quv fan dasturlari muallifidir.

3.2. YETAKCHI METODIST OLIMLARNING ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Mustaqillik yillarda geografiya ta'limi mazmuni va maqsadi o'zgarishi munosabati bilan dastlabki paytlarda geografiya o'qituvchilari talaygina qiyinchiliklarga duch keldilar. Bular avvalo o'quv qo'llanmalari va vositalarining yetishmasligi, bilim berishda faqat o'qituvchining yetakchilik qilishi, o'quvchilarning esa oddiy ishtirokchi bo'lishi xukm surdi.

Aksariyat o'quvchilarning egallagan bilimlarini amalda qo'llay olmasliklari malum bo'lib koldi. O'qituvchilar o'z ish faoliyatlarida muammoli metodlardan, kompyuter texnikasidan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llarini bilmasliklari ayon buldi.

Utish davridagi maktab darsliklari jahon standartlari talabalariga javob bermasdan qoldi. Bularning barchasi maktablar uchun yangi o'quv dasturlari ishlab chiqishni takozo etdi.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining "Geografiya" kafedrası olimlari tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun ishlab chiqarilgan dasturlari hozirgi davr talabalariga birmuncha javob berishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa boshlang'ich tabiiy geografiya, materiklar va okeanlar geografiyasi, Turkiston tabiiy geografiyasi, O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi dastur va darsliklari talablar darajasida emasligi tajribalarda aen buldi. Bu muammoni xal etish uchun respublikamizdagi barcha geografiya olimlari, metodistlari faollik etishlari zarur bo'ladi. Shu tufayli ularni zamon talablarida yozish uchun tajribali olimlar taklif etila boshlandi. Muqobil darsliklar yozish masalalari ilgari surildi.

Mustaqillik yillarida unlab ilmiy ommabop, o'quv-metodik adabiyotlar yaratildi va geografik mazmundagi adabiyotlarni yozishga kirishildi.

Geografiya ta'limi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi.

Geografiya ta'limi metodikasi esa maktablarda va o'rta maxsus ta'limda tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va amaliy geografiya fanlarini o'qitish jarayonini o'rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandır.

Ushbu geografiya ta'limini o'qitishda ustoz Ortiq Mo'minovning 1986-yilda nashr qilingan "Geografiya ta'limi metodikasi" nomli qo'llanmasida har bir sinflar uchun kursning vazifasi, mazmuni va tuzilishi, dars materiallarining o'rganish metodlari bilan yoritilgan.

Ustoz Geografiya metodikasida ilgari surilgan tartib-qoidaalarni ilmiy jihatdan asoslash uchun tadqiqotlar olib borish to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ushbu asardan metodikaga oid tadqiqotning maqsadi maktab geografiyasi mazmunini ishlab chiqish, ta'lim va tarbiyaning tashkil etishdagi mavjud metod va shakllarni takomillashtirish va yangilarini izlashdan to'g'risida ko'rsatmalar olishimiz mumkin.

Ortiq Mo'minov ushbu asarida har bir tema mazmuniga mos keladigan qurollarni tayyorlashga ham anchagina e'tibor bergan. Bunda tadqiqotda kuzatish, maktab hujjatlarini o'rganish, o'qituvchi va boshqalar bilan olib boriladigan suhbatlar va nihoyat, pedagogik eksprement metodlaridan foydalanish mumkin.

Domla ushbu asarida "geografiya o'qituvchisi bo'lishni istagan har bir kishi o'qitish, ya'ni ta'lim berish faoliyati juda murakkab va ma'suliyatli kasb ekanligini anglab olishi zarur"-deb takidlaydi. ... O'qituvchi zimmasiga hayot ehtiyojlariga to'la javob beradigan va o'z zamoniga munosib kishilarni tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifa yuklatilganligi to'g'risida tarbiyaviy ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

Bunda geografiya o'qituvchisiga o'z ishining mohiyatini tushinib olishga, uning murakkabligini payqashga va bu ish uchun jamiyat oldidagi ma'suliyatni sezishga yordam beradi. Metodikadan yaxshi xabordor o'qituvchi o'z ishiga tanqidiy qarab oladi, erishgan yutuqlarini hisobga olib, undan xulosa chiqarib boradi, tajriba to'playdi va ayni vaqtda, o'z ishidagi kamchiliklarni payqab olib, uni tugatib boradi. O'qituvchi talabga javob beradigan darajada ta'lim-tarbiya berishi uchun avvalo yangi metodologiya bilan kurollangan bo'lishi lozim.

Geografiya o'qituvchisi o'z fanini sevishi va puxta bilishi, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini o'quvchilar ongiga singdira borishiga erishmog'i lozim. O'quvchilar o'z fanini yaxshi bilgan, darsni yuksak mahorat bilan o'tadigan tadbirkor o'qituvchilarga ixlos qo'yadilar. O'z fanini, ishini yaxshi bilmagan, kasbini sevmagan O'qituvchi hech qachon o'quvchilar e'tiborini qozona olmaydideb takidlaydi.

Geografiya o'qituvchisi bolalar psixologiyasini hisobga ola bilishi, pedagogika qonuniyatlarini tushunib yetishi, ta'lim-tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana olishi lozim. O'quvchilar turli amaliy ko'nikmalar olishi kerak. O'quvchilarga plan olish, kuzatish, turli sxema va chizmalar chiza olish, turli xil o'quv qurollarini yasay olish va ulardan foydalanish kabi ko'nikmalarni singdira borish talab etiladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida, darsda o'rganiladigan bilimlardan ko'zda tutilgan maqsadni o'quvchilarga ko'rsatib borishi, o'quvchilar faoliyatini oshirishga, ularni mustaqillikka o'rgatishga mos keladigan o'qitish usullarini tatbiq etishi, nihoyat, o'quvchilarni ongli intizomga o'rgata borishi lozim. Har qanday kasb kabi, o'qituvchilik kasbi ham qunt bilan ishlashni talab etadi.

Geografiya o'qituvchisi bilimini tinmay oshirishi, pedagogik mahoratini orttira borishi, ta'limni hozirgi zamon va hayot bilan bog'lab olib borishi lozim. Geografiya o'qituvchisidan o'z ilmiy va pedagogii saviyasini tinmay oshirish, chunonchi, geografiya, pedagogika, psixologiya va metodikaga oid yangiliklardan, muntazam ravishda xabardor bo'lib borish talab etiladi.

O'qituvchi o'z fani va kasbiga astoydil ixlos qo'yishi, o'quvchilarini sevishi kerak. Shundagina u haqiqiy o'qituvchi, o'z kasbini egallagan moxir pedagog bo'la oladi. O'qituvchi darsining samarali va qiziqarli bo'lishida nutq madaniyatining roli katta ekanligini aslo unutmasligi kerak.

O'qituvchi mehnatining asosiy samarasi — o'z mahoratini muntazam takomillashtirishga asoslangan ijodiy faoliyatidir. Fan asoslarini, maktab psixologiyasini va ta'lim metodlarini puxta egallagan o'qituvchigina o'z mahoratini oshirib bora oladi.

O'qituvchi vaqtini ayamay, muntazam ravishda ijodiy izlanishi, nimanidir topishi, to'plashi, umumlashtirishi darkor.

Geografiya o'qituvchisi zinhor andaza bilan, bir qolipda ishlamasligi, muayyan ish usullariga qul bo'lib qolmasligi kerak. Hatto bir mavzuning o'zini ham har yili bir xil metod va usul bilan o'quvchiga o'rgatish maqsadiga muvofiq emas. U har qancha mukammal ko'rinsada tayyor xulosaga taqlid qilaverish yaxshi natija bermaydi. O'qituvchi o'zining har bir tadbirini pedagogika va metodikaning printsiptial qoidalar bilan asoslashi lozim. O'qituvchining ish sharoiti (har bir sinf o'quvchilari har xil, ularning xususiyatlari bir-biridan keskin farq qiladi) ham bir xil andaza bilan ishlashga imkon bermaydi.

Geografiya o'qituvchilari o'zlari ishlayotgan maktablarida ajoyib geografiya kabineti vujudga kelishini, zarur qo'llanmalar bilan ta'minlanishini qo'l qovushtirib kutmasligi kerak. Mehnatni to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etishning asosiy vazifalaridan biri — mavjud vositalardan unumli foydalanib, yuqori samaraga erishishdan iboratdir.

O'quv jarayonining tashkil etishni takomillashtirish — qimmatli vaqtdan unumli foydalanishdir. Mehnatning to'g'ri tashkil etilmasligi (darsga kechikib kirish, o'quvchilarning darsga sust tayyorlanib kelishi, davomatni aniqlash, kartaniig o'z vaqtida osilmasligi, o'quvchi bilimni yuqori ko'tarishga intilish) natijasida ba'zan bir necha minut vaqt bekorga sarf bo'lish hollariga yo'l qo'ymaslik kerak.

Xullas, geografiya ta'limi saviyasining yuqori bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchiga, uining ta'lim-tarbiyadagi mahoratiga bog'liqdir.

Bunda Geografiya ta'limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog'langan. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tatqiq qiladigan nazariy fandir. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tatqiq qiladigan nazariy fandir. Didaktika fani aniq o'quv fanlarini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanadi. Ayni vaqtda har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va

ko'nikmalarni shakillantirish (geografiya, biologiya, ximya), ayrimlari faqat, ko'nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo'lishini shakillantiradi (tasviriy san'at). Shuning uchun aloxida fanlarni o'qitish metodikasi bilan hususiy didaktika fanlari shug'ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga "Geografiya o'qitish metodikasi" fani ham kiradi. Geografiya o'qitish metodikasini nazariy va amaliy jixatlari mavjud. Geografiya o'qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tatqiq qiladi:

a) geografiya o'qitish metodikasining predmeti, tatqiqot usullari, rivojlanish tarixi;

b) geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umuman va aloxida predmetlar bo'yicha aniqlash;

v) ta'lim va tarbiyaning birligi;

Nazariy tatqiqotlarning natijalari amaliy tatqiqotlar uchun asos bo'lib hisoblanadi. Mazkur tatqiqotlarda geografiya ta'limining amaliy muammolari hal qilinadi. Geografiya o'qitish metodikasining amaliy jixatlari o'qituvchini o'qitish faoliyatini, o'quvchini o'qish faoliyatini aks ettiradigan metodlarni ishlab chiqishdir.

Geografiya o'qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat. Umumiy va hususiy geografiya o'qitish metodikasi.

Umumiy geografiya o'qitish metodikasi bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o'qitish jarayonini o'ziga xos xususiyatini o'rganadi.

Ushbu kitobdan Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni, yani predmetni o'zini tatqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tiborni o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limin mazmuni ishlab chiqiladi. Bunda umumiy metodika ikki qismga bo'linadi:

- tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitish metodikasi;

Geografiya o'qitishning hususiy metodikasi – alohida o'quv predmetlarini maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi va umumnazariy holatlarni aniq o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida qo'llash masalalarini o'rganadi.

Xususiy geografiya o'qitish metodikasi, tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarini alohida predmetlari bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Xususiy o'qitish metodikasi alohida geografiya fanlarini mazmuni uchun umumiy metodikaning nazariy ishlanmalarini aniqlashtiradi, har bir sinf geografiya kursini mazmuni va tuzilishi geografik tushunchalarni shakllantirish, o'quv ishlari usullarini, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tahlil qilish muammolarini ishlab chiqadi.

Geografiya o'qitish metodikasining umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- maktab geografiyasining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;
- maktab geografiyasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish;
- maktab geografiyasi mazmuni va tuzilishida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish;
- o'qitish materiallarini qo'llashni optimal sharoitlarini asoslash;
- o'qitish vositalarini ishlab chiqish;
- geografiya darslarini tuzilishi, o'lchamlari va turlarini yanada takomillashtirish;
- geografiya o'qitishni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash;
- geografik ekskursiyalar, tatqiqotlar o'tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish;
- o'quvchilarda amaliy geografik ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish;

Geografiya o'qitish metodikasi o'qituvchilarni, o'quvchilarni o'qitish nazariyasi va tarbiyasi bilan qurollantiradi.

Geografiya o`qitish metodikasi tadqiq qiladigan metodologik va nazariy muammolarga ilmiy tadqiqot metodlari va predmeti, chet ellarda va O`zbekistonda geografiya ta`limi, geografiya va uning alohida kurslari bo`yicha o`qitish mazmuni, maqsadi va vazifalari, geografik bilimlarni egallashda ta`lim bilan tarbiyaning birligi, o`quvchilarda geografik bilim, ko`nikma va malakalar hamda dunyoqarashini shakllantirish, geografiya ta`limi jarayonining umumiy qonuniyatlari kiradi.

Geografiya o`qitish jarayonining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat.

- geografiyani o`qitish maqsadi
- geografiya ta`limining mazmuni
- geografiyani o`qitish metodlari
- geografiyani o`qitish va o`rganishni tashkil etish(ta`lim shakllari)
- o`quvchilarning yosh xususiyatlari va bilish imkoniyatlari
- geografiya ta`limining natijalari va h.k.

Yuqoridagi tarkibiy qismlar o`rtasidagi mustahkam aloqa mavjud. Masalan: o`rganiladigan mavzuning maqsadi, ta`lim-tarbiya vazifalari mazmuniga mos keladigan ta`lim shakllari, o`qitish usullari hamda vositalaridan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishni taqozo qiladi. Geografiya ta`limi metodikasining nazariy metodologik masalalari ko`pgina metodist-geograf olimlar A.E.Bibik, A.V.Darinskiy, G.P.Gerasimova, M.K.Kovalevskaya, I.S.Matrusov, L.M.Panchyoshnikova, M.V.Rijakov, O.A.Mo`minov, X.X.Xasanov, P.G.Musaev va boshqalar asarlarida o`z ifodasini topgan. Geografiya ta`limi metodikasi fani umumiy metodika, metodikaning nazariy masalalari, tabiiy va iqtisodiy geografiyani o`qitish metodikasi kabi qismlardan iborat. O`z navbatida ularning har biri xususiy metodikalar (maktab geografiya kurslarini alohida-alohida o`rganish metodikalarini) o`z ichiga oladi. Umumiy metodika maktab geografiyasi kurslari uchun o`qitish qonuniyatlarini ya`ni o`qitishning umumiy mazmuni va maqsadini tashkil etilishini, ta`lim metodlari, ta`lim vositalari, sinfdan tashqariishlar va boshqalarni o`rganadi. A.V.Darinskiy

umumiy metodikani geografiya didaktikasi deb aytgan edi. Xususiy metodika maktab geografiya kurslarining maqsadi, mazmuni, tarkibi, geografik bilim, ko`nikma malakalar shakllantirish, har bir kurs bo'yicha o`quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va h.k.lar bilan shug`ullanadi.

O.Mo'minovning Geografiya ta'lim metodikasida:

- maktab geografiyasining ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari;
- geografiya ta'limining mazmuni;
- geografiya o`qitishning shakl va usullari;
- ta'lim jarayonida geografiya o`qitish vositalari (dasturlar, darsliklar, atlas haritalar, o`quvchi va o`qituvchilar uchun ilmiy metodik qo`llanmalar va boshqalarni yaratish);
- o`quvchilarning o`quv materiallarini o`zlashtirishlari;
- ta'lim jarayonida o`quvchilar fikrlashining rivojlanishi va h.k. bilan bog`liq vazifalarni yoritilgan.

Geografiya o`qituvchisi har bir darsning vazifasini, maqsadini, maz-munini ularni egallashda qandayta'lim metodlari va vositalari qo`llani-

shini, o`quvchilarning faoliyati nimalardan tashkil topishini oldindan aniqlab olishi kerak. Eng muhimi darslar o`rtasidagi aloqadorlik va bog`liqligining nimalarda aks etishi dars rejalarida o`z aksini topgan bo`lishi lozim. Darslarda geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot usullari masalalari metodist olim O.A. Muminov tadqiqot larida atroflicha umulashtirilgan. Tadqiqot usullarini tanlash qo'yilgan maqsad va vazifalarga bog`liq. Eng avvalo, qo'yilgan metodik muammo dolzarbligining maqsad va vazifalarini belgilash uchun maxsus adabiyotlarni nazariy jihatidan taxlil qilish zarur. Agar bilim, ko`nikma, malakalarni shakllantirishning samarali usul va vositalarini izlamokchi bo`lsak, avvalo uni o`quv jarayonini taxlil qilishdan boshlamok kerak. Buni eksperiment asosida, o`qitish, surovnomma yordamida, o`quvchi va o`qituvchilar bilan suxbatlar tarzida uyushtirish mumkin. Har qandaytadqiqot da nazariya metodi yetakchi o`rinni egallaydi. U o`z navbatida bir kancha usullarni, xususan: adabiyotlar taxlili, statistik-matematik, tarixiy va taqqoslash metodlarini o`z ichiga oladi.

Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha tadqiqot olib boruvchilar, eng avvalo geografiya falsafa didaktika, pedagogika, psixologiya, mantik, bilish nazariyasi kabi fanlarini chuqur o'rganib chiqishlari zarur. Ularda tadqiqot uchun, taqqoslash va qiyoslashga oid bo'lgan malumotlar tuplanadi. GUM bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda statistik – matematik metodlarning hamroli katta. Bunda tajriba utkaziladigan sinflar va maktablardagi ish natijalarini e'tiborga olish keng qo'llaniladi. Olingan miqdoriy ko'rsatkichlarga tayanib u yoki bu metodning, usulning, vositalarning kanchalik samara berishligini aniqlash imkoniyati tugiladi. Statistik, matematik metodning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, ular yordamida, pedagogika va uslubiy hodisalar o'rtasidagi qonuniyatlarni ochish imkoniyatlari yaratiladi. Masalan, tajriba sifatida qo'llaniladigan ta'lim metodi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, bilish faoliyati faolligiga qay darajada ta'sir qilishini o'rganishga yordam beradi.

M. Nabixonovning "Geografiya darslarida badiiy va boshqa qo'shimcha adabiyot materiallaridan foydalanish" metodik qo'llanmasidan geografiya darslarida badiiy adabiyot materiallaridan foydalanishning o'quvchilarga estetik tarbiya berishdagi roli g'oyatda muhimdir. Bunda estetik tarbiya vatanparvarlik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib o'quvchilarni tabiyatga bo'lgan muhabbatini oshiradi. Geografiya darslarida badiiy va boshqa qo'shimcha adabiyotdan foydalanish, nihoyatda o'quvchilarning nutqini o'stiradi va boitadi.

Ustozning geografiya darslarida badiiy va boshqa qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish o'qituvchining o'zi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Bu materiallar uning fikr doirasini kengaytiradi, nutqini rivojlantiradi, jozibali qiladi, rolli iboralar ishlatishga o'rgatadi.

Geografiya darslarida badiiy va qo'shimcha adabiyot materiallaridan foydalanish uchun qulay va dastur talablariga mos keladigan parchalar tanlanishi lozim. Buning uchun o'qituvchi badiiy adabiyot asarlarini hamda kundalik matbuotni, shuningdek, ilmiy ommabop asarlarni muntazam o'qib borishi kerak. Qo'shimcha material tanlash uchun o'qituvchi maktab geografiya kursiniptuzilishidan to'liq xabardor bo'lishi va uz fanini yaxshi bilishi talab ztiladi.

Badiiy va qo'shimcha adabiyotda o'qituvchi juda ko'p qiziqarli materiallarni uchratishi mumkin. Biroq, bo'larniig hammasi ham geografiya darslarida qo'llash yaxshi natija beravermaydi. O'qituvchi o'tiladigan dars mazmunni ochib berishga xizmat qiladigan va ta'lim-tarbiya printsipligam mos keladigan parchalarni tanlay ola bilishi lozim.

Materialni saralashda asosai quydagilarga e'tibor berish kerak bo'ladi. Avvalo, tanlangan material qiziqarli bo'lishi, o'quvchilarning bilim saviyasi va yosh xususiyatlariga mos kelishi — ta'lim-tarbiya talablariga javob berishi lozim. Tanlangan qo'shimcha material o'zining badiiy saviyasi, voqeyiligi va mazmuni bilai o'quvchilarni o'ziga jalb qilmog'i zarur. Bunday bo'lmagan taqdirda kutilgan natijaga erishish qiyin.

Tanlangan qo'shimcha materialga qo'yiladigan talabining eng muhimi shundan iboratki, tanlangan tekst yoki parcha ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi kerak. Ba'zan badiiy asarning ayrim parchalari geografiya darslarida foydalansa. bo'ladigan materialdek tuyuladi. Ammo, ularni tahlil qilsak, ilmiy jihatdan zaif ekanlign ma'lum bo'ladi. Chunonchi, bir shoirning she'rida Zarafshon daryosining suvi tinik (zilol) deb ataladi, uning suvini miqdor jihatdan dengiz suviga tenglashtiriladi. So'ngra shoir bu daryoning suvidan «bahra olmay qancha yer chanqoq» deydi.

Bu fikrlar, albatta, ilmiy nuqtai nazardan noto'g'ri.

Chunki, avvalo, Zarafshon daryosining suvi tiniq (zilol) emas, ko'pincha loyqa—bo'tana bo'lib oqadi.

Suvi sug'orishga juda ko'p sarf bo'ladigan, atrofdagi yerlar g'oyat bahra oladigan Zarafshondek daryo dunyoning boshqa hech joyida yo'q desa bo'ladi. Shuning unun ham bu daryo ancha vaqtlardan beri Amudaryoga yetolmay, tugap qolmoqda.

Ya'ni, Zarafshonni suvining miqdori jihatidan dengizga qiyos qilish ham noto'g'ridir, chunki Zarafshon upnchalik sersuv va azim daryo emas.

Demak, tanlanadigan qo'shimcha material badiiy jihatdan, pishiq bo'lishi bilan birga unda geografik ob'ektning ta'rif va tavsifi ilmiy tomondan haqiqatga

yaqin va to'g'ri bo'lishi kerak. Mana shunday talablarga javob beradigan parchaga shoir Hamid Olimjonning "Uzbekistan" she'ridagi quyidagi misralarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan gulistoi,—
O'zbekistan deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin;
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida
Chor atrofda yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayni ko'klam.
Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib go'yo yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan qochadi uyqu.
Dalalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.

Bu parcha estetik jihatdangina emas, balki ilmiy jihatdan ham to'laqonlidir. Respublikamiz bag'ridan uning husniga-husn qo'shuvchi ikki buyuk daryoning jilvalanib oqib o'tishi, yuksakka qad ko'targan «qorli tog'lar» va «gul vodiylar» ko'rki, yam-yashil libosga burkangan bahorimiz jamoli yorqin misralarda haqqoniy aks ettirilgan. Shoir o'lkamiz go'zalligini yuksakka ko'tarib, «dostonlarda bitgan guliston» ga qiyos qiladi. Bu satrlar o'ziga xos geografik ma'no kasb etadi. Bir tomonda (ya'ni, sharqda) qorli tog'lar joylashganligi, ulardai boshlanuvchi Sirdaryo va Amudaryo O'zbekistonning ikki chekkasidan oqib o'tishi kabi geografik ma'lumotlarni misralarga jo qilar ekan, shoir guyo O'zbekiston kartaga chizayotgandek tuyuladi, jonojon tabiatimiz manzarasini ko'z oldimizda namoyon qiladi.

Shoir Oybek o'zining «O'zbekiston» she'rida:

“Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor,
Bir o'lkaki, sal ko'rmasa Quyosh sog'inar”

deb respublikamizning iqlimi haqida ham ilmiy, ham badiiy jihatdan juda puxta satrlar yaratadi.

O'zbekistonda qish ba'zan iliq o'tadi. Ariqlar bo'yida, qirlarda maysalar ko'karib turadi. Qishda qattiq sovuqlar bo'lib turgan kezlarda ham janubdan iliq (tropik) havo massasi essa, kunlar ilib, hatto yanvarda (asosan, janubiy oblastlarimizda) ba'zan temperatura $+20^{\circ}$ gacha ko'tariladi. Bunda shoir aytganidek, guyo bahor, “shivirlaydi”. “Sal ko'rmasa, quyosh sog'inar” misrasmda respublikamizning go'zalligi, serquyosh ekanligi tarannum etiladi. Umuman olganda shoirning bu merialari O'zbekiston iqlimining xususiyatlarni tushunishda o'quvchilarga ko'maklashadi.

Demak, tanlangan qo'shimcha materiallar darsning qiziqarli bo'lishiga ta'sir etishi, o'quvchilarda zavq uyg'otishi na mavzu materiallarini aniqlashtirish kerak. Bnnobarin, qo'shimcha materialga qo'yiladigan talablardan biri uning geografiya dasturisiga muvofiq kelishi va o'tilayotgan tema bilan uzviy bog'liq bo'lishidir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, qo'shimcha material tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga e'tibor berish lozim. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning ilmiy saviyasi, fikr doirasi va nutq boyligini hisobga olishi zarur.

Badiiy parchalardagi jumla, ibora va so'zlar qiyin yokm eskirgan bo'lsa, o'quvchilarga tushunilmaydi, ularni zeriktiradi va charchatadi. Natijada, ko'zda tutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Chunonchi, shoir, olim, sayyoh va sarkarda 3. M. Bobirning mashhur «Bobirnoma» sidagi O'sh shahri tasvirinn ko'zdan kechiraylik.

«Yana bir O'sh qasabasidir. Andijonning sharqi-janubiy tarafidir, sharqka moyil, Andijondin to'rt yog'och yo'ldir. Havosi xo'b va oqar suyi farovondir. Bahori bisyor yaxshi bo'lur, O'sh fazilatida xili ahodis vorid bo'lubtur».

Bu parcha Bobir O'sh shahrining geografik o'rni Andijongacha bo'lgan masofasi, xo'sh havosi, oqar suvlari, bahor fasliniig ko'rkamligi va umuman,

geografik hodisalarga boyligini to'g'ri ta'riflaydi. Ammo parchada arxaik so'zlar va iboralarning ko'pligi o'quvchilarga tekstni tushuntirishni qiyinlashtiradi.

Muqimiy "Sayohatnoma" she'rida Vodil qishlog'ini:

"Vodil maqomi dil fizo,
Ko'chalaridir dil kusho,
Anhorida obi safo,
Sebarga, obishar ekan"

deb tasvirlab, qishloq manzarasining kishi bag'ri-dilini ochishini ta'kidlaydi. Ammo bu she'rdagi "dil fizo", "dil kusho" va "obishar" so'zlari o'quvchilarga tushunarli emas. Bu hol o'qilayotgan parchaning emotsional ta'sirini susaytiradi. Parchadagi eskirgan so'zlarning ma'nosini tushuntirishga ancha vaqt ketadi. Shuning uchun bu kabi materiallarni o'quvchilarga darsdan tashqari vaqtda o'qishni tavsiya etish mumkin. Ammo shunda ham undagi qiyin so'z va iboralarni o'qituvchi ularga tushuntirib berishi kerak.

Yuqorida zikr etilgan talablarni ko'zda tutib, geografiya o'qituvchisi badiiy va ilmiy-ommabop asarning foydalansa bo'ladigan qismlarini geografik jihatdan xarakterli bo'lgan parchalarnigina tanlab oladi. Ayrim hollarda, kichikroq badiiy asardan to'la foydalanish ham mumkin. Tanlab olingan qo'shimcha materialning ba'zilarini qayta ishlashga to'g'ri keladi.

Badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotdan tanlab olingan qo'shimcha material bir va bir necha qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Biroq ular mantiqan bir-biri bilan bog'lanishi lozim.

Shoir Hamid Olimjonning «O'zbekistoi» she'ri geografik mazmunga boy; biroq geografiya darsida bu she'rning hammasini uqib berish shart emas. Mazkur she'rning boshlanish qismi ham juda ta'sirchan bo'lib, hammaga yoqishi ravshan:

"Voldiylar yayov kezganda
Bir ajib his bor edi manda...
Chopar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'i".
Choppar urnb gullagap bogip,

Shubhasiz, bu parchaning badiiy saviyasi va vatanparvarlik g'oyasi ancha yuksak, estetik ta'siri ancha kuchli. Shuning uchun biz yuqorida "O'zbekiston" she'ridan tabiat tasviri eng konkret bayon etilgan parchani tanlab olganmiz. Unda geografiklik, tabiat elementlari orasidagi uzviy bog'lanish yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan.

Ustoz Pottov Baratov domlaning "O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar" deb nomlangan o'quv qo'llanmasi Tabiiy geografiya fanlar tizimida, dala amaliyoti, ekskursiya, fan olimpiyada va bilimlar bellashuvida o'qituvchilar keng foydalanish mumkin.

Bunda talabalar O'zbekistonning tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlarni puxta bajarishlari orqali Vatanimizning tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini bilib olishlari bilan birga, tabiat unsurlarining rivojlanish qonuniyatlarini, bir-biriga uzviy bog'langanligi, biror unsurining tabiiy holati o'zgarishi tezda ikkinchisiga salbiy ta'sir yetishini tushinib oladidlar. Agar talaba darslik, o'quv qo'llanmalar, har xil xarita va atlas ustida mustaqil ishlab, amaliy ishlarni puxta bajarish malakasini hosil qilmasa, nazariyadan olgan bilimlari bilan chegaralansa, ularning bilish doirasi, xususan, sinchkovlik, ijodkorlik xususiyatlari cheklanib qoladi. Oqibatda ular O'zbekiston tabiati unsurlarining holatini, rivojlanish jarayonlarini, ular orasidagi aloqadorlik qonuniyati sabablarini, mohiyatini tub ma'nosi bilan tushunib yetmaydilar.

Talabalar O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy ishlar topshiriqlarni bajarayotganda eng muhim masalaga tabiiy geografiya tushunchasi — bu tabiiy-hududiy komplekslar tushunchasi ekanligiga alohida e'tibor berishlari kerak. Agar ular bu tushunchani yaxshi o'zlashtirsalar, tabiat yaxlit bir butun va ayrim o'zaro uzviy aloqada bo'lgan tabiiy komplekslardan tashkil topganligiga ishonch hosil qiladilar.

O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy ishlarni bajarish jarayonida talabalar berilgan topshiriqlarni puxta, sinchkovlik bilan bajarsalar, ular quyidagi qonuniyatlarning mohiyatini tushuna oladilar:

— tabiiy komplekslar unsurlaridagi barcha hodisa va jarayonlar alohida ajralgan holda emas, balki uzviy aloqada, bir-biriga bog‘liq, bir-biriga o‘zaro ta’sir natijasida rivojlanadi;

— tabiiy komplekslar shunchalik uzviy bog‘liqki, agar uning biror unsuri tabiiy holatiga noto‘g‘ri ta’sir etilsa, u o‘z navbatida boshqa unsurlarning holati o‘zgarishiga sabab bo‘ladi;

— tabiat komplekslarida zonallik va ritmiylik (tabiatning sutkalik, fasliy va yillik o‘zgarishi, tog'larning hosil bo‘lishi va boshq.) hodisasi mavjudligini;

— tabiiy komplekslarda modda va energiya aylanasi harnda uning geografik qobiq hayotidagi ahamiyatini;

— tabiat insonning yashash makoni, noz-ne’matlar yaratuvchi manba sifatida uni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanib, ularni qayta tiklab boyitib borishni o‘rganadi.

O‘zbekiston tabiiy geografiya fanini o‘rganish bo‘yicha talabalarning fikrlash va bilish qobiliyatlarini shakllantirishda ularning mustaqil ravishda amaliy ishlarni bajarishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki darslik, o‘quv-qo‘llanma, har xil adabiyotlar va xarita-atlaslar ustida mustaqil ravishda, sinchkovlik bilan ishlash, mashq qilish, berilgan topshiriqlarni puxta, sifatli bajarish tufayli talabalar uchun zarur bo‘lgan quyidagi malaka va ko‘nikmalar shakllanadi:

— turli mazmundagi va masshtabdagi xaritalar, atlaslar bilan ishlab, ularni bir-biriga taqqoslab, tahlil va sintez qilish tufayli talabalarda masofani, yo‘nalishni, ma’lum tabiiy obyektlarning geografik o‘rnini, unda sodir bo‘layotgan tabiiy jarayonlarni, tabiiy obyektning hozirgi holatini, unga ta’sir etuvchi omillarni, tog‘ yonbag‘ri va uning balandligi, cho‘qqisi, bo‘laklarga bo‘linganligi, qiyaligi va boshqalarni aniqlash;

— O‘zbekiston tabiiy unsurlarini bir-biriga taqqoslab xulosalar chiqarish;

— tabiiy-hududiy komplekslarga geografik tavsif berish;

— turli adabiyot va xarita-atlaslardan foydalanib, talabalar O‘zbekistonning geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, suvlari, tuproq-o‘simlik qoplamining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning o‘zaro aloqasi, zonal va azonal

holda o'zgarishi haqida tushunchalarga ega bo'ladilar, natijada ularda bo'lg'usi o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan malaka va kompleks ko'nikmalar shakllanadi;

— O'zbekiston tabiiy unsurlarining aloqadorlik sababi, mohiyati, undan kelib chiqadigan hodisa-oqibatlarni bilib oladilar; O'zbekistonning tekislik qismida iqlimning quruqligi, yozda jazirama issiqning uzoq davom etishligi sababli uning o'simlik qoplami arid tiplidir yoki Qirqto'g asosan ohak, gips jinslardan tashkil topganligi tufayli karst jarayoni rivojlangan.

Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rinib turibdiki, Vatanimiz tabiati haqida chuqur bilim beradigan va uni muhofaza qilish yo'llarini tushuntiradigan geograflar tayyorlashda O'zbekiston tabiiy geografiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni sifatli, ong'li ravishda bajarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, ayrim talabalar dasturda ko'rsatilgan darslikdan tashqari ilmiy, ilmiy-metodik, ommabop geografik adabiyotlarni deyarli o'qimaydilar, maxsus xarita va atlaslar bilan ishlashda qiynaladilar. Ular ma'ruzadan pala-partish yozib olgan juda qisqa konspektlari bilan cheklanib, natijada torgina ma'lumot egasi bo'lib qoladilar. Shuning uchun talabalarni amaliy ish jarayonida har xil xarita-atlaslar ustida ishlashga, mavzuga tegishli ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlarni o'qishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston tabiiy geografiyasidan o'qiladigan ma'ruzalar va bajariladigan amaliy mashg'ulotlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Lekin bundan amaliy mashg'ulotlarning vazifasi nazariyadan olgan bilimlarni takrorlashdan iborat, degan ma'no chiqmaydi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar nazariyadan olgan bilimlarini amalda tadbiq etish, berilgan har xil topshiriqlarni mustaqil bajarib, tahlil qilib, tegishli xulosalar chiqarishga o'rganadilar, malaka va ko'nikma orttiradilar, shu tariqa geografiya o'qituvchisining kelgusi ishida o'sha malaka va ko'nikmalardan bimalol foydalanadilar.

O'zbekiston tabiiy geografiyasidan talabalar uchun o'quv qo'llanma (P.Baratov. «O'zbekiston tabiiy geografiyasi», Toshkent, «O'qituvchi», 1996-y.) mavjud. Lekin amaliy ishlar va ularni bajarishga oid o'quv qo'llanma yo'q. Bu esa mazkur fandan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda ma'lum qiyinchiliklarga

sabab bo'lmogda. Shuni hisobga olib, «O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar» o'quv qo'llanmasini yaratishni lozim topdik.

Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda quyidagilarni nazarda tutdik: talabalarda nazariyadan olgan bilimlarini mustahkamlash; turli mazmundagi xarita-atlaslar, raqamli ma'lumotlarni tahlil qilib tegishli xulosalar chiqarish; har xil raqamli ma'lumotlar asosida geografik diagramma, maxsus profillar, kompleks — tabiiy-geografik profil tayyorlash, chizish uslubini o'rgatish, bo'lg'usi geograf-o'qituvchilarda aniq bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularda mustaqil ishlash qobiliyatini yanada takomillashtirish, har xil adabiyotlardan foydalanish, maxsus xarita-atlaslarni bir-biriga taqqoslab, xulosalar chiqarish malakasini shakllantirish mumkin.

XULOSA

Mavzuga turtki bo'lgan g'oya-sabablardan biri 2015-yilda Nizomiy nomidagi TDPUning 85 yillik yubileyi keng nishonlanishi va bu davr mobaynida "Geografiya" kafedrası mamlakatimiz geografiya ta'limiga qo'shgan hissasini yoritishni maqsad qilib olingan. Shu tufayli biz sohamiz jonkuyarlarining geografiya ta'limiga qo'shgan hissasi tahlil qilindi.

Sababi TDPUning "Geografi" kafedrası geografiya fanining rivojiga ma'lum darajada hissa qo'shgan, Oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va kasb – hunar kollejlari hamda umum ta'lim maktab o'quvchilari uchun darslik, o'quv-metodik qo'llanmalar yaratgan yuqori malakalar ilmiy xodimlar tayyorlangan va tayyorlab kelmoqdalar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalarini bajarishda hamda ishni shakllantirishda olingan natijalar quyidagi xulosalarni keltirib chiqardi:

1. Kafedraning geografiya ta'limiga qo'shgan hissasini o'rganishi ahamiyatli tomoni ya'ni, mamlakatimizda geografiya fani rivojlanishida har bir professor-o'qituvchilarining o'z o'rinlari betakror ekanligi tahlil qilindi;
2. Kafedraning rivojlanish bosqichlari har bir davrlari tahlil qilinib ilmga, ma'rifatga intilgan holda ya'ni Oliy va o'rta maxsus ta'lim, umumiy o'rta ta'lim hamda keng omma uchun boy ilmiy-metodik ishlar tahlil qilindi;
3. Geografiya kafedrasida tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlarni aniqlandi;
4. Kafedraning yetakchi metodist olimlari (O.Mo'minov, M.Nabixonov, T.Abdullaeva, P.Baratov va.b-lar)ning xalq farzandlarining savodli bo'lishi, fan fidoyiligi, umuman geografiya ta'limiga qo'shgan hissasi batafsil o'rganildi;
5. Kafedra yetakchi metodist olimlarining ilmiy merosidan foydalanish metodikasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishini shakllantirishda to'plangan ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlar va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish ishning xulosalarini ko'rib chiqishga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy –huquqiy hujjatlar

1.1. O'zbekiston respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.- 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. // T, 1997 yil 29 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

1. 2004-2009 yillarida maktab ta’limini rivojlantirish davlat umumiy dasturi to’g’risidagi Prezident Farmoni. T., 2004 y 21-may.
2. Respublika hukumatining 1935 yil 23 maydagi 34-son qarori va Xalq maorifi komissarligining 1364-sonli qarorlariga asosida O’rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakulteti zahirida Toshkent Davlat pedagogika instituti tashkil qilish to’g’risida qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutiga universitet maqomi berish to’g’risida. 1998 yil 2 fevralidagi 77-sonli qarori.

1.3. Asosiy darsliklar va o’quv qo’llanmalar

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari T. «O'zbekiston» 1998y. 686 b.
2. Karimov I.A. “Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili”. T. “O'zbekiston”. 1995
3. Abduraxmonov G.A i dr., “50 yubileyi Tashkentskom gosudarstvennomu pedogogicheskomu institutu im. Nizamii. T., O’qituvchi, 1985
4. Asanov G., Nabixanov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T., «O'zbekiston» 1994. 209 b.
5. Baratov.P, Alimqulov.N, “TDPUning 80 yillik yubileyi” ilmiy materiallar to’plami T, Nizomiy nomli TDPU, 2014 y

6. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T. O'qituvchi, 1996y.
7. Baratov P., Rafiqov A., Mamatqulov M.M., O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T. «O'qituvchi» 2001y
8. Vaxobov X., Tillaboeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. T. «O'qituvchi» 2001y., 150 b
9. Vaxobov X., Zaynuddinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. T., Universitet, 2001.80 b
10. Kurbanioyozov R. Geografiya ta'limi metodikasi. T. Universitet., 1992. 128b.
11. Kostyanko N.F., Kalacheva I.G. Problem primeneniya v VUZax sovremennyx texnologiy obucheniya. TDPU axborot texnologiyalari va masofaviy markazi axborotnomasi. 2003., №4, 23-24b
12. Mo'minov O. Geografiya ta'limi metodikasi. T. «O'qituvchi» 1998.
13. G'ulomov P., Vaxobov X. Geografiya umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligining axborotnomasi 3-maxsus soni. T. «SHarq».1999y. 101-201 b
14. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T., 2000 - 2007

Интернет сайтлари

www.ecoross.ru/old/aleks_s.htm

www.google.uz.

www.ziyonet.uz.

www.nature.ru

www.tdpu.tps.uz.

Bitiruv malakaviy ishda keltirilgan atamalardan

Izohli lug'at

№	O'zbek tili	English
1	Geografik	Geographic
2	Ta'lim	Education
3	Qonun	Law
4	Kadr	Basic
5	Sifat	Quality
6	Malaka	Skill, experience
7	Mahorat	Talent, Gift
8	San'at	Art
9	Ma'suliyat	Responsibility
10	Mutaxassis	Specialist, expert
11	Pedagog	Teacher, educational specialist
12	O'qituvchi	Teacher
13	Faoliyat	Activity
14	Kasb	Profession, trade
15	Tafakkur	Thinking, mentality
16	Litsey	Lyceum
17	Uslub	Method
18	Olim	Scientist
19	Texnologiya	Technology
20	Tajriba	Experience
21	Yangilik	The news
22	Innovatsiya	Innovation
23	Isloxot	Reform
24	O'quvchi	Pupil
25	Qadriyat	Tradition, customs
26	Fermer	Farmer
27	Axborot	News, information
28	Akademik	Academician
29	Gektar	Hectare
30	Gradus	Degree
31	Iliq	Warm
32	Janub	South
33	Artizan qudug'i	Artesian well
34	Chegara	Border
35	Aholi	Inhabitants
36	Ampplituda	Amplitude
37	Kanal, anhor	Irrigation, canal
38	Modernizatsiya qilish	Modernization

39	Sanoatlashgan	Industrial
40	Ekologik muammo	Ekologik problems
41	Shartli yoqilg'i	Agreed upon fuel
42	Eng yosh tarmoq	The youngest
43	Balans	Balance
44	Byudjet	Budget
45	Investetsiyalar	Investment
46	Infrastruktura	Infrastructure
47	Iqtisodiy salohiyat	Economic potential
48	Kadastr	Cadastral
49	Kapital mablag'lar	Capital investment
50	Kichik biznes	Small enterprise
51	Kooperativ mulkchilik	Cooperative property
52	Markazlashtirish	Centralization
53	Mehnat resurslari	Labour resource
54	Milliy boylik	National property
55	Mutaxassis	Specialist
56	Resurslar	Resources
57	Biznesmen, tadbirkor	Businessman
58	Shirkat	Partnership
59	Yalpi milliy mahsulot	Gross national product
60	Ehtiyoj	Needs, wants, demands
61	Jarayon	Process
62	Texnologiya	Technology
63	Yer	Land
64	Iqlim	Climate
65	Issiq	Hot
66	Sovuq	Cold
67	Harorat	Temperature
68	Rel'ef	Relief
69	Joy	Place
70	Global	Global
71	Sug'ormoq	Irrigate
72	Tog'	Mountain
73	Tuman	Fog
74	Atrof muhit	Environment
75	Agrar	Agriculture
76	Olim	Scientist
77	Qishloq xo'jaligi	Agriculture
78	Sanoat	Industry
79	Zavod fabrika	Plant
80	Shahar	City
81	Tabiiy	Natural

82	Viloyat	Region
83	Tarixiy	Historical
84	Huquqiy	Legal, juridical
85	Yo'l	Noad
86	Masofa	Way
87	Temir yo'l	Roilroad railway
88	Kon	Mine
89	Damba to'gon	Dike
90	Ichimlik suvi	Drinking water
91	Suv	Water
92	Neft	Petrolcum
93	Sarmoya	Capital, means
94	Valyuta	Currency
95	Yer kadasri	Lang kadaastre
96	Yer monitoringi	Monitoring of lang
97	Yer rentasi	Cround lond rent
98	Jamg'arma	Fob with ctorage
99	Idora, tashkilot	Institution agency
100	Import	Import
101	Yer fondi	land fond
102	Issiq	hot
103	Ko'l	lake
104	Harorat	temperature
105	Shamol	wind
106	Tuproq	soil
107	Suv resurslari	water recourse
108	Joy	place
109	Global	global
110	Mahalliy	Local
111	Sug'orish	irrigate
112	Tuman	tog
113	Qor	snow
114	Chiroyli	city
115	Turist	tourist
116	Buloq	spring
117	Yomg'ir	rain
118	Ariqcha	brooklet
119	Sovuq	brast
120	Dasht	steppe
121	Gektar	hectare
122	Daraja	gegrle
123	Iliq	warm
124	Janub	south

125	Shimol	North
126	Tog'lar	Mountains
127	Atmosfera	Atmosphere
128	Ekvator	Equator
129	Troposfera	Troposphere
130	Antitsiklon	Antitsiklon.
131	Flora	Flora
132	Fauna	Fauna
133	Tabiiy resurslar	Natural Resources
134	Faoliyat	Activity
135	Kasb	Profession,trade
136	Tafakkur	Thinking, mentality
137	Litsey	Lyceum
138	Uslub	Metod
139	Olim	Scientist
141	Texnologiya	Technology
142	Tajriba	Experience
143	Yangilik	The news
144	Innovatsiya	Innovation
145	Isloxot	Reform
146	O'quvchi	Pupil
147	Neft	Oil
148	Tabiiy gaz	Gas
149	Tabiat zonasi	Natur zone
150	Kristallar	Crystal